

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

SHAYMANOVA ADIBA ERGASHEVNA

**O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS JARAYONIDA
MULKDORLAR QATLAMINING SHAKLLANISHI: IJTIMOYIY-
FALSAFIY JIHATLARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand - 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

Shaymanova Adiba Ergashevna

О‘zbekistonda Uchinchi Renessans jarayonida mulkdorlar qatlamining
shakllanishi: ijtimoiy – falsafiy jihatlar 3

Шайманова Адига Эргашевна

Формирование класса собственников в процессе Третьего Ренессанса в
Узбекистане: социально-философские аспекты 31

Shaymanova Adiba Ergashevna

The formation of the owner stratum in the process of the Third Renaissance in
Uzbekistan: social-philosophical aspects 61

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of works published 66

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

SHAYMANOVA ADIBA ERGASHEVNA

**O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS JARAYONIDA
MULKDORLAR QATLAMINING SHAKLLANISHI: IJTIMOYIY-
FALSAFIY JIHATLARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand - 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.DSc/Fal101 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Hakimov Nazar Hakimovich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Djurayev Luqmon Narzullayevich
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Xuseynova Abira Amonovna
falsafa fanlari doktori, professor

Pardayev Mamayunus Qarshibayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.F.02.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «___» _____ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (8366) 239-11-40; ye-mail: rektor@samdu.uz Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti, 1-qavat, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№___-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (0366) 239-11-40.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil «___» _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.Sh.Negmatova

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

X.A.Djurakulov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.R.Samadov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda XXI asr boshlariga kelib, erkin bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarini rivojlantirish hamda uni yanada takomillashtirish aksariyat taraqqiy etayotgan davlatlar uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday jarayon, o‘z navbatida, keng miqyosdagi moddiy-iqtisodiy va ma’naviy-madaniy ehtiyojlarni qondirish uchun yetarli darajada barqaror daromadga ega mulkdorlar qatlamini shakllantirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Shu sababli, jamiyatda loqaydlik, befarqlik, mehnatdan, mulkdan begonalashuv, xiyonat, poraxo‘rlik, boqimandalik kabi salbiy illatlar kuchayib borayotgan bir davrda halol mehnat qilish, ilmni qadrlash, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, yaratuvchanlik kabi ijobiy xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan mulkdorlar qatlamini shakllantirish mexanizmlari va ularni takomillashtirish usul-vositalarini aniqlash dolzarb bo‘lib bormoqda.

Jahonning bir qator yetakchi ilmiy tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarida jamiyatni yanada demokratlashtirish, fuqarolik jamiyatini takomillashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy barqarorlikning asosi bo‘lgan mulkdorlar qatlamining shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy-nazariy va amaliy-fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, mulkdorlar qatlamining genezisi, transformatsiyasi, jamiyat innovatsion rivojiga to‘siq bo‘layotgan omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga oid olib borilayotgan tadqiqotlar muhim ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, umumjahon ilmiy taraqqiyot tendensiyalaridan ortda qolmaslik uchun mulkdorlar qatlamini shakllanishi, uning jamiyat rivojidadagi ahamiyatini, antropologik, psixologik, gnoseologik, ontologik, ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini tadqiq etish zaruriyati tobora ortib bormoqda.

Mamlakatimizda “inson qadri uchun” tamoyili asosida Yangi O‘zbekistonni barpo etish, xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish, inson huquqlari va manfaatlarini ta’minlash hamda fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlar olib borilmoqda. “Yangi O‘zbekistonni halol mehnat qilib muvaffaqiyatga erishishni orzu qiladigan, tadbirkorlik orqali o‘zi va oilasi farovonligini ta’minlashga intiladigan, Vatani va xalqiga sidqidildan xizmat qilishni istaydigan barcha fuqarolar uchun keng imkoniyatlar mamlakatiga aylantirishimiz shart va zarur”¹. Shu boisdan, bunyod etilayotgan yangi, Uchinchi Renessansning ijtimoiy – iqtisodiy asosi bo‘lgan mulkdorlar qatlamining shakllanishi, rivojlanish tendensiyalarini, ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini hamda ularning takomillashuv qonuniyatlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 22-avgustdagi PF-198-son “MulK huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvlarga yo‘l qo‘ymaslik, xususiyl mulKning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari

¹Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. – B.195.

to'g'risida", 2020-yil 26-martdagi PF-5975-son "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari hamda sohaga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I."Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi¹. Hozirgi davrda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida mulkdorlar qatlamining o'zni masalasiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Markaziy Osiyoni tadqiq qilish Fransuz markazi (French Institute for Central Asian Studies (IFEAC)), Jorj Vashington universiteti Markaziy Osiyo dasturi (The Central Asia Program (CAP) at George Washington University), Garvard universiteti Rossiya va Yevroosiyoni tadqiq qilish markazi (The Davis Center for Russian and Eurasian Studies at Harvard University), Berlindagi Humboldt universiteti (Humboldt-Universität zu Berlin), Budapesht Korvinus universiteti (The Center for Central Asia Research of Corvinus University of Budapest), M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Osiyo va Afrika mamlakatlari instituti (Институт стран Азии и Африки Московского государственного университета имени М.В.Ломоносова)da olib borilmoqda.

Dunyoda mulkdorlar qatlamini shakllanishi, ularning hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida tutgan o'rnini tadqiq etish bo'yicha jahonda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: sobiq sovet davridagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning mamlakatlar aholisining turmush-tarziga ta'siri, bir yoqlama iqtisodiyotning shakllanishi, kolxozlardagi migratsion jarayonlar, musulmon jamiyatidagi o'zgarishlarning o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan (French Institute for Central Asian Studies (IFEAC)); sobiq sovet hokimiyatining olib borgan ma'muriy siyosati natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy jarayonlar, hamda ijtimoiy muammolar va ularni bartaraf etish imkoniyatlariga doir masalalarga yechimlar taklif qilingan (The Central Asia Program (CAP) at George Washington University); sotsialistik iqtisodiy tizim inqirozi natijasida yuzaga kelgan holatni ijtimoiy transformatsiyalar orqali

¹Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi: <https://cyberleninka.ru/article/n/zarubezhnyy-opyt-razvitiya-selskih-territoriy/viewer>; <https://www.unwto.org/unwto-global-rural-tourism-startup-competition;file:///C:/Users/User/Downloads/RDI-CDN-Based-Universities-Rural-Research-Centres-Final.pdf>; <https://snu.ac.kr/eng/index.php/research/regional-research/center-for-eurasian-and-central-asian-studies/>; <https://www.iaaw.hu-berlin.de/de>; <http://www.cccar.hu/>; <http://iaas.msu.ru/index.php/ru/>; https://www.researchgate.net/publication/311808185_socialnaa_zasita_i_razvitie_selskih_regionov_vzglad_iz_Vostocnoj_Evropy_i_Centralnoj_Azii; <http://edjr.ru/article/05-07-20>

shaharlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish mexanizmlari ko'rsatib berilgan (The Davis Center for Russian and Eurasian Studies at Harvard University); hududlarda yuzaga kelgan tabiiy o'zgarishlar natijasidagi inqirozli holatlar, xususan, qashshoqlikka qarshi kurash borasida hududda shakllangan strategiya va tajribalar natijalari tahlil qilingan (Humboldt-Universität zu Berlin); geosiyosiy va geoiqtisodiy o'zgarishlar, turli loyihalarni joriy etishga urinishlar sharoitida hududlarni barqaror va tezkor iqtisodiy rivojlantirish uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan (The Center for Central Asia Research of Corvinus University of Budapest); hududdagi milliy iqtisodiy tuzilmalari va takror ishlab chiqarish jarayonlarini qiyosiy o'rganish asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini modellashtirish va bashorat qilish usullari ishlab chiqilgan (Институт стран Азии и Африки Московского государственного университета им. М.В. Ломоносова).

Jahonda mulkdorlar qatlamini rivojlantirish bilan bog'liq masalalarni o'rganish bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va mulkdorlar qatlamini shakllanishining konseptual-metodologik asoslari; global ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning shakllari; yoshlarda tadbirkorlik ko'nikmasi va madaniyatini shakllantirish usul-vositalarini aniqlash; milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirishga oid ilmiy konsepsiyalar yaratish; jamiyat ijtimoiy barqarorligi va taraqqiyotida mulkdorlar qatlamining tutgan o'rnini tadqiq etish; mulkdorlar qatlamining rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyo falsafiy merosidan alohida o'rin egallagan Platon, Aristotel, Sitseron, Dj.Lokk, T.Gobbs, I.Kant, va Gegel kabi mashhur G'arb mutafakkirlarining asarlarida Uyg'onish davri va mulkdorlar qatlami to'g'risidagi dastlabki qarashlar o'z ifodasini topgan va muhimi mulkdorlar qatlamiga jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining tayanchi sifatida qaralgan¹.

Jahonda, Renessans hodisasining mohiyati tahliliga dastlab mashhur sharqshunos olim Adam Mets, fransiyalik tarixchi Jyul Mishle e'tiborni qaratdilar², xitoy, gruzin, arman, ozarbayjon Renessansi tarixi va o'ziga xos takomilini maxsus tadqiq qilgan akademik N.I.Konrad, Sh.I.Nutsubidze, I.S.Braginskiy kabi olimlar Sharqdagi renessans jarayonining o'ziga xos jihatlarini tadqiq etgan³. Iqtisodchi va jamoat arbobi Ernando de Soto mulk huquqini belgilashni takomillashtirish, mulkni topshirish jarayonlarini standartlashtirish va shaffofligini oshirish, shaxsiy mulk daxlsizligi masalalarini tadqiq etgan⁴. R.Kantilyon, J.Sey, A.Smit

¹ Platon.Qonunlar to'g'risida.-T.: "Yangi avlod", 2002; Аристотель.Политика. соч.,том 4, М.,1983; Цицерон. Диологи.-М.,1996.- 24 с; Локк. Дж. Два трактата о правлении.Соч.: Т.3, -312 с; Кант.И. Идеи всеобщий истории в всемирно-гражданском плане. – М., 1994. - 95 с.

² Мец А. Мусульманский ренессанс. – Москва: Наука., 1973. - 473 стр; Брагина Л.М.: Итальянский гуманизм: этические учения для ист.фак. ун-тов и пед. Ин-тов. – М.: "Высшая школа", 1977. - 254 с.

³ Н.И.Конрад. Избранные труды. Литература и искусство. – М.: 1978. – 90–144 с.; Ш. И. Нуцубидзе Руставели и восточный Ренессанс. Тбилис. гос. ун-т им. Сталина. – Тбилиси.: Заря Востока, 1947. - 385 с; И.С.Брагинский Проблемы востоковедения: Актуальные вопросы восточного литературоведения. М., 1974.

⁴ Эрнандо де Сото. "Загадка капитала". – М.: Олимп-Бизнес, 2004. – 272 с.

mulkdorlarning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rnini va ahamiyatini tadqiq etishgan¹. G.Zimmel pulning iqtisodiy hamda madaniy rolini, uning muhim qadriyatlarini o'lchov vositasi ekanligini, E.Dyurkgeym, M.Weber, T.Parsons, P.Sorokinlar mulkdorlar qatlamini jamiyat ijtimoiy stratalaridagi o'rnini va rolini aniqlashgan².

MDH olimlari T.Zaslavskaya, A.Ageyev, V.Radayev, M.Shkaratan va boshqalar³ jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotida mulkdorlarning o'rnini, ularning shakllanish omillari, tadbirkorlik subyektlari boshqaruvi, uning ijtimoiy jihatlarini tadqiq etishgan.

O'zbekistonda keyingi yillarda, mulkdorlar qatlamini jamiyat ijtimoiy taraqqiyotining indikator sifatida keng o'rganilmoqda. Jumladan, A.Razzoqov, Sh.Toshmatov, N.O'rmonovlar⁴ qadimdan to hozirgi davrgacha paydo bo'lgan iqtisodiy fikr, g'oya, qarash va ta'limotlarning mazmun-mohiyatini, ularning evolyutsiyasi va bugungi kundagi ahamiyatini, ayniqsa, tanqid etib kelingan bozor iqtisodiyoti (kapitalistik munosabatlar) to'g'risidagi ta'limotlarni, shuningdek, mustaqil O'zbekiston Respublikasining erkin bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishgan. M.Muxammedov, A.Umarovlar⁵ O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim bosqichlari, xususan Temur va Temuriylar davri va hozirgi O'zbekiston iqtisodiyotini tarixiy jihatdan qiyoslab o'rganishgan. I.Abdullayeva, L.Djurayev, J.Davletov, S.Narkulov, Sh.Negmatova, A.Xudayqulovlar⁶ yangi O'zbekiston sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyatini, ularning shaxs iqtisodiy ongi va madaniyatini shakllantirishdagi rolini aniqlashga intilishgan. B.Aliyev, A.Jo'rayev, R.Jumayev, S.Jo'rayev, Sh.Zulfiqarov, Z.Ismoilov, N.Muxammadiyev, M.Mirhamidov, A.Muxtorov, Q.Nazarov, A.Saitqosimov, A.Saidov, I.Saifnazarov, B.To'rayev, B.To'ychiyev, N.Hakimov, J.Yaxshilikov, A.Choriyev, S.Choriyev, I.Ergashev, A.Erkayev, M.Qirg'izboyev, N.Qodirov kabi olimlar⁷ tomonidan yangi

¹Hebert K., Link A. The Entrepreneur. - N.Y., 1982. 51-P. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Соцэкгиз, 1962 -332 С.;

² Simmel G. The Philosophy of Money [Electronic resource] /Simmel G.–Accessmode: http://www.eddiejackson.net/web_documents/Philosophy%20of%20Money.pdf. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии. – М.: Наука, 1990. – 575 с.; Вебер М. Избранные произведения. Пер. с нем. – М.: Прогресс, 1990. – 797 с.; Парсонс Т. Система современных обществ. Пер. с англ. Л.А.Седова. –М.: 1998. – 397 с., Сорокин П. Человек, цивилизация, общество. – М, 1992. – 393 с.

³Заславская Т. Бизнес слой российского общества: сущность, структура, статус // Общественные науки и современность. – №1. – С. 22; Агеев А.И. Предпринимательство: проблемы собственности и культуры. – М., 1991. – 112 с.; Радаев В.В. Экономическая социология. Курс лекций: Учеб. пособие. – М.: Аспект Пресс, 2011. – 368 с.; Шкаратан М. О. Феномен предпринимателя: интерпретация понятий. – М., 1993. – 1-10 с.

⁴А. Раззоков, Ш. Тошматов, Н.Ўрмонов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. – Т.: «Молия», 2002. – 491 б.

⁵М.М.Мухаммедов, А.З.Умаров. Ўзбекистон иқтисодиётининг тарихи. – Т.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2021. 376 б.

⁶ I.Abdullayeva. “Milliy taraqqiyotning yangi bosqichida iqtisodiy va innovatsion tafakkur uyg'unligi” Fals.f. bo'yicha fals.d. (PhD) diss.avtoref. – Samarqand: SamDU, 2019; L.Djurayev. Zamonaviy O'zbekiston jamiyatida yoshlar iqtisodiy madaniyatining transformatsiyalashuvi - innovatsion sotsiomadaniy fenomen sifatida” Fals.f.d. (DSc) diss.avtoref. – Samarqand: SamDU, 2021; J.Davletov. «O'zbekistonda «Har bir oila – Tadbirkor» konsepsiyasi va uning innovatsion mohiyati» Fals.f. bo'yicha fals.d. (PhD) diss.avtoref. – Samarqand: SamDU, 2020; S.Narkulov «Mustaqillik davrida O'zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojlanishi va ijtimoiy ong'dagi o'zgarishlar» Fals.f. (DSc) diss. avtoref. – T.: O'zMU, 2018; Sh.Negmatova “Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida sog'lom raqobatni rivojlantirishning ma'naviy, axloqiy va huquqiy jihatlarini” Fals.f.d. (DSc) diss. avtoref. – Samarqand: SamDU, 2018; A.Xudayqulov “Jamiyat ijtimoiy rivojlanishida iqtisodiy ongning roli” Fals.f.n. diss. avtoref. – T.: O'zMU, 2005;

⁷ A.Jalilov, U.Muhammadiyev, Q.Jo'rayev. Fuqarolik jamiyati asoslari. – T., 2015; A.Saitqosimov “Fuqarolik jamiyatini barpo etishda ijtimoiy sohani innovatsion rivojlantirish qonuniyatlari” Fals.f.d. (DSc) diss. avtoref.-

taraqqiyot bosqichida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda mulkdorlar qatlami, xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qator takliflar ilgari suriladi.

Biroq xorijiy mutaxassislarning ilmiy ishlarida uyg'unlash davri va mulkdorlar qatlami to'g'risidagi qarashlar o'sha mamlakatlardagi ijtimoiy voqelik kontekstida tahlil qilinadi. Mamlakatimizda e'lon qilingan ilmiy ishlar esa asosan ularning ayrim aspektlariga bog'ishlangan. Shu bois, "Uchinchi Renessans va mulkdorlar qatlami" kontekstidagi aloqadorlikni yaxlit va tizimli ravishda tadqiq qilish zaruriyati haligacha o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Buni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlarida, nutq va ma'ruzalarida ¹ Uchinchi Renessans va mulkdorlar qatlami bilan bog'liq muammolar yangicha nazariy va konseptual asosda qo'yilganligi, soha olimlari, jumladan, jamiyatshunoslar uning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy jihatlarini har tomonlama o'rganish muhimligini ko'rsatadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Qarshi davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq (2021-yil 30-avgust 1-son qarori asosida tasdiqlangan) "Barkamol inson shaxsining shakllanishida obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar dialektikasi" (2021-2025yy.) mavzusidagi tadqiqot dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda mulkdorlar qatlamining shakllanishi va uning Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdagi konstruktiv ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Uchinchi Renessans jarayoni va mulkdorlar qatlami shakllanishining nazariy falsafiy asoslariga oid qarashlarni manbalar tahlili asosida ochib berish;

mulkdorlar qatlamining rivojlanish genezisi va transformatsiya jarayonini o'rganish;

mulkdorlar qatlami shakllanishining ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy asoslarini tahlil qilish hamda ularning sotsiomadaniy taraqqiyotga ta'sirini asoslab berish;

yangi rivojlanish bosqichida mulkdorlar qatlamining jamiyat innovatsion rivojiga ta'sirini hamda kambag'allikni qisqartirish omili ekanligini aniqlash;

intellektual mulkdorlar qatlamining inson manfaatlarini ro'yobga chiqarishdagi o'rnini dalillash;

fuqarolik jamiyatining barqarorligini ta'minlashda mulkdorlar qatlamining o'rnini va roli hamda istiqboldagi ijtimoiy mavqeyini mustahkamlashga doir taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyektini Uchinchi Renessans va mulkdorlar qatlamining shakllanishi, rivojlanishi jarayonlari tashkil etadi.

Samarqand: SamDU, 2019; Хакимов Н. Стратегия развития страны. Гражданское общество.-Т., 2021; Хакимов Н, Зулfiqarov.SH, Qodirov N. O'zbekiston yangi taraqqiyot bosqichida. – Т., 2022; A.Choriyev. Inson falsafasi. – Toshkent:” O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” , 2007.; A.Erkayev. Yangi O'zbekiston: mo'ljal-uchinchi renessans.-Т.,2021;

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlari va nutqlari dissertatsiya yozishda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida ko'rsatilgan.

Tadqiqotning predmetini O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini shakllantirish jarayonida mulkdorlar qatlamining nazariy va amaliy ahamiyatini o‘rganish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, sotsiologik tadqiqot, kontent-tahlil, retrospektiv tahlil, dialektik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessansni barpo etish jarayonida zamonaviy mulkdorlar qatlamini shakllantirish birlamchi omil sifatida jamiyat hayotidagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy sohalarda yangi sifat o‘zgarishlariga olib kelishi falsafaning atributiv kategoriyalari vositasida ochib berilgan;

mulkdorlar qatlamining jamiyatdagi potensial imkoniyatlarini oshirishda shaxs erkinligi, huquqlarini kengaytirish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi bilan bog‘liq qonuniyat ekanligi falsafiy asoslangan;

ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning yangi taraqqiyot bosqichida O‘zbekistonda milliy bozor madaniyatini shakllantirish va ijtimoiy-madaniy omillarning rolini aniqlash hamda uni isloh qilishning yangi dasturini qabul qilish orqali qulay va xavfsiz ishbilarmonlik muhitining shakllanishiga xizmat qilishi isbotlangan;

Yangi O‘zbekistonga xos qadriyat, milliy mentalitet xususiyatlari transformatsiyasida mulkdorlar qatlamining iqtisodiy, siyosiy va ma‘naviy sohalardagi xarakterli belgilari va amal qilish tamoyillarini takomillashtirish zaruriyati mantiqiy dalillangan;

yangi zamonaviy ilm fan yutuqlarini egallagan mulkdorlar qatlami aholining turmush farovonligini oshirishda va kambag‘allikni qisqartirishda iqtisodiyotning birlamchi drayveri sifatida milliy identligimizni saqlab qolishi falsafiy jihatdan asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini shakllantirishning asosiy maqsadlari va vazifalari, unda mulkdorlar qatlamining o‘rni, ulardan kutilayotgan natijalar va o‘zgarishlar umumlashtirilgan bo‘lib, olingan xulosalar viloyatlarda amalga oshirilgan ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar samaradorligini oshirishda foydalanilgan;

targ‘ibot tadbirlari ishtirokchilariga Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlarining o‘ziga xos xususiyatlari va o‘sha davr allomalarining gnoseologik qarashlari singdirilgan. Shuningdek, Sharq va G‘arbda hozirgi kunga qadar olib borilgan falsafiy tadqiqotlar asosida ularning umumiylik, xususiylik, alohidalik jihatlari haqidagi bilim va ko‘nikmalari oshirilgan, diniy va dunyoviy ilmlarning zamonaviy bilimlarga transformatsiyalashuviga doir fikrlarini rivojlantirishga xizmat qilgan;

O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini shakllantirishda mulkdorlar qatlamining tutgan o‘rni falsafiy jihatdan aniqlashtirilgan va ularni takomillashtirish orqali jamiyatda kambag‘allikni qisqartirishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan;

jumladan, ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari, siyosiy institutlar va nodavlat-notijorat tashkilotlari uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

jamiyatning barcha qatlamlari, ijodkor ziyolilar: olimlar, adiblar, san'at ahli, tibbiyot xodimlari hamda davlat xizmatchilari va yuksak malakali injener-texnik xodimlar, iqtisodchilar, menejerlar, advokatlar, amaliyotchi psixologlar, ishchilar, tadbirkorlar va yoshlarning keng ishtirokini ta'minlash mexanizmlari ilmiy asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari yuzasidan berilgan xulosalar, ishlab chiqilganligi taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarning ilmiy ahamiyati O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida mulkdorlar qatlamining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni va mavqeini yanada oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilganligi, ushbu qatlam aholi bandligini ta'minlashga, o'z o'zini band qilishga, kambag'allikni qisqartirishga va aholi farovonligini ta'minlashga yo'naltirilgan mamlakat istiqboli uchun muhim bo'lgan nazariy yondashuvlar taklif etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekiston Respublikasi Senati va Qonunchilik palatasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, ijtimoiy institutlar tomonidan O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorining mustahkam asosi bo'lgan mulkdorlar qatlamini shakllantirishga qaratilgan maqsadli faoliyat strategiyasini ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkinligi, shuningdek, universitetlar, texnikum, kasb-hunar kolleji, akademik litseylarda "Falsafa", "Siyosatshunoslik", "Sotsiologiya", "Iqtisodiyot asoslari", "Ma'naviyat asoslari" fanlari bo'yicha ma'ruza matnlari, darslik va o'quv qo'llanmalarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda Uchinchi Renessans jarayonida mulkdorlar qatlamining shakllanishi: ijtimoiy-falsafiy jihatlarimavzudagi tadqiqotning ilmiy natijalari asosida:

Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessansni barpo etish jarayonida zamonaviy mulkdorlar qatlamini shakllantirish birlamchi omil sifatida jamiyat hayotidagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy sohalarda yangi sifat o'zgarishlariga olib kelishiga doir ilmiy taklif va tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yilga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturining II yo'nalishida belgilangan "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi mazmun-mohiyati hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar targ'iboti" nomli 7-bandi ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2023-yil 23-martdagi 111-son ma'lumotnomasi). Natijada, Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan amalga oshirilgan ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot-tashviqot ishlarining samaradorligini mustahkamlashda,

xususan, O‘zbekistonda barpo etilayotgan Uchinchi Renessansning ijtimoiy tayanchi, barqaror taraqqiyot, totuvlik va mamlakat xavfsizligining ishonchli kafolati bo‘lgan mulkdorlar qatlami to‘g‘risidagi tasavvurlarini shakllantirishga targ‘ibotchilar uchun muhim metodologik-nazariy asos sifatida xizmat qilgan;

mulkdorlar qatlamining jamiyatdagi potensial imkoniyatlarini oshirishda shaxs erkinligi, huquqlarini kengaytirish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi bilan bog‘liqligiga oid taklif-tavsiyalardan Qarshi davlat universiteti qoshidagi “Zamon” mintaqaviy tadqiqot markazining 2021-2022-yillarda amalga oshirilgan “Ma’naviy yetuk yoshlar - porloq kelajak sari yo‘l boshlar” mavzusidagi 21-05/1t-8 raqamli amaliy grant loyihasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Qarshi davlat universiteti qoshidagi “Zamon” mintaqaviy tadqiqot markazining 2023-yil 21-apreldagi 164-son ma’lumotnomasi). Natijada, amaliy grant loyihasida belgilangan vazifalar ijrosi samaradorligini oshirishda hamda yoshlarda tadbirkorlik ko‘nikmasi va madaniyatini, moliyaviy savodxonligini shakllantirishda nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan;

ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning yangi taraqqiyot bosqichida O‘zbekistonda milliy bozor madaniyatini shakllantirish va ijtimoiy-madaniy omillarning rolini aniqlash hamda uni isloh qilishning yangi dasturini qabul qilish orqali qulay va xavfsiz ishbilarmonlik muhitining shakllanishiga xizmat qilishiga oid taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Liberal demokratik partiyasining 2021-2022-yillarga mo‘ljallangan hududiy dasturining ma’naviy-ma’rifiy sohadagi ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Liberal demokratik partiyasining 2023-yil 3-martdagi 01-27/102-son ma’lumotnomasi). Natijada, partiyaning dasturlari mazmun-mohiyatini oshirishga va ularni ishlab chiqishda muhim manba bo‘lib xizmat qilgan;

Yangi O‘zbekistonga xos qadriyat, milliy mentalitet xususiyatlari transformatsiyasida mulkdorlar qatlamining iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy sohalardagi xarakterli belgilari va amal qilish tamoyillarini takomillashtirishga oid amaliy taklif va tavsiyalardan Qashqadaryo viloyat hokimligining 2021-2022-yillarda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”da belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyat hokimligining 2023-yil 30-martdagi 07/1376-son ma’lumotnomasi). Natijada, yoshlarning ijtimoiy-ma’naviy dunyoqarashini, mafkuraviy immunitetini yuksaltirish, ularda Uchinchi Renessans va mulkdorlar qatlami to‘g‘risidagi tassavurlarini shakllantirishga xizmat qilgan;

yangi zamonaviy ilm fan yutuqlarini egallagan mulkdorlar qatlami aholining turmush farovonligini oshirishda va kambag‘allikni qisqartirishda iqtisodiyotning birlamchi drayveri sifatida milliy identligimizni saqlab qolishga oid taklif va tavsiyalardan Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yilda efirga uzatilgan “Diyor yangiliklari” informatsion dasturi va “Ma’rifat soati” ko‘rsatuvining dastur ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yil 9-martdagi 17-05/43-son ma’lumotnomasi). Natijada, Yangi O‘zbekiston, Uchinchi Renessans jarayoni va

mulkdorlar qatlami haqida jamoatchilik fikrini shakllantirish borasidagi sa'y-harakatlar samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 35 ta ilmiy ish, jumladan, bitta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 13 ta ilmiy maqola (11 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, to'qqiz paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovadan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 201 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti, unda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Uchinchi Renessansda mulkdorlar qatlamini shakllanishining nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlanib, u, “Uchinchi renessans jarayoni va mulkdorlar qatlami shakllanishining nazariy falsafiy asoslari” hamda “Jamiyatda mulkdorlar qatlamining shakllanish genezisi” nomli ikkita paragrafni o'z ichiga olgan. Unda Uchinchi Renessans jarayoni va mulkdorlar qatlamining nazariy asoslari hamda shakllanish genezisi ochib berilgan. “Renessans” so'zi – fransuzcha “Renaissance”, italyanacha – “Rinascimento” – qayta yuzaga kelmoq, yangidan tug'ilmoq, qayta tirilish, uyg'onish – degan ma'nolarni anglatadi¹. Ushbu atamaning mazmuni anchayin keng bo'lib, madaniyat, san'at, ilm-fan, iqtisodiyot, ta'lim-tarbiya, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli bir xillikdan keyin qayta rivojlanish, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimining yangi sifat bosqichiga ko'tarilib, bir tarixiy davrdan yangi bir tarixiy davrga qarab o'tishini bildiradi. Uning yuzaga kelishi, shakllanishi va rivojlanishi qator dialektik xususiyatlarga ega. Jumladan, Uchinchi Renessansva mulkdorlar qatlamining shakllanish jarayonlarida sistema va element, mazmun va shakl, mohiyat va hodisa, sabab va oqibat, imkoniyat va voqelik, zaruriyat va tasodif dialektikasi, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi qonuni, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni, inkorni-inkor qonuni namoyon bo'ladi.

Shu boisdan, avvalo, ushbu tushunchaning mazmun-mohiyatini aniq ochib berish, aholining barcha qatlamlari, birinchi galda yoshlar ongiga yetkazish, ularda

¹ Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans: ma'no-mohiyati, zarurati va mushtarakligi. <https://uza.uz/uz/posts/yangi-ozbekiston-va-uchinchi-renessans-mano-mohiyati-zarurati-va-mushtarakligi>

falsafiy tafakkurni yuksaltirish muammosini yangicha paradigmalar asosida hal etish zarurati yuzaga kelmoqda. Ikkinchidan, Renessans jamiyatning turli sohalarida namoyon bo'lishi mumkin, uning taraqqiyotida sifat jihatdan har tomonlama yangi bosqichga o'tish zarurligini ko'rsatadi. Jumladan, iqtisodiyot, ijtimoiy hayot, ta'lim, sog'liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat, sport va ma'naviy hayot va qadriyatlar tizimi, ekologik xavfsizlik, xalqaro aloqalar, boshqa yo'nalishlar bo'lib, Uchinchi Renessans boshlanishi uchun ularning barchasida yangi sifat o'zgarishlar, passionarlik (passionarlik – o'ziga xos xulq-atvor belgisidir. Bu shunday xulq-atvorki, belgilangan maqsad sari yengib bo'lmas, kuchli intilish yordamida harakatlanish va maqsadiga erishish uchun nafaqat o'z hayoti, balki kelgusi naslining hayotini ham ayamaskidir¹) yuz berishi lozim.

Uchinchidan, Renessansni amalga oshiradigan mamlakat va xalq, avvalo, o'z davrining ilg'or mamlakatlari, xalqlari qatoriga qo'shilishi, mavjud bo'lgan avvalgi tafovutlarni kamaytirish kerak. Zero, kunini qiyinchilik bilan o'tkazadigan xalq na ilm-fanni, na adabiyot va san'atni, na maishiy madaniyatini rivojlantira oladi, na o'zining estetik va boshqa ma'naviy ehtiyojlarini yetarlicha qondiradi. Shuni nazarda tutgan holda davlat rahbari: “xalqimiz ertaga emas, uzoq kelajakda emas, bugun hayotidan rozi va mamnun bo'lib yashashi kerak”² - degan g'oya faoliyatimizning asosiy mazmunini tashkil etishi kerakligini bejiz ta'kidlamagan.

To'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti ta'biri bilan aytganda “Bugungi kunning o'tkir va dolzarb muammolari bizdan zamonaviy taraqqiyotning asosiy tamoyillarini har tomonlama chuqur tahlil etish bilan birga, insoniyatning yaqin-olis tarixidagi boy tajribasini ham teran idrok etishni taqozo etadi”³ degan fikrlariga asoslanib, tariximizni chuqur bilishimiz, yo'l qo'yilgan xatolarni takrorlamaslik, ulardan to'g'ri saboq chiqarishni taqozo etadi. Binobarin, Sharqda yuzaga kelgan Renessans Yevropanikidan farqli o'laroq, davomli bo'lmaganining ham sabablaridan biri jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, ayniqsa, iqtisodiy sohalarining rivojlanmagani, ya'ni birinchi o'rinda kapital va ishlab chiqarish o'rtasida konsentratsiya yuz bermaganligi oqibatida yuzaga kelgan deyish mumkin. Shu sababli, yaratilajak Renessansning siri mamlaktda muhim shart-sharoit va munosib muhit yaratish lozimligini taqozo etadi. Bu esa, erkin bozor munosabatlarini qaror topishi va mulkdorlar qatlami rivojlantirish bilan kechadigan jarayondir. Zero, Uchinchi Renessansning mustahkam asoslarini barpo etishda, mulkdorlar qatlami muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular, bir-biri bilan uzviy bog'liq hisoblanadi.

Ijtimoiy falsafada mulkdorlar qatlami deganda keng miqyosdagi moddiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy ehtiyojlarni qondirish uchun etarli darajada barqaror daromadga ega kishilarning ijtimoiy guruhi tushuniladi. Ularning boyligi yoki mulki, daromadi «munosib» turmush sifatini ta'minlash uchun yetarli darajada bo'ladi. Mulk konsepsiyasi falsafiy tahlili nuqtai-nazaridan olib qaraydigan bo'lsak, unda insoniyatning o'zini-o'zi rivojlanishini aks ettiradi. Shu

¹Alimuhamedova N.Y. Millat tushunchasining tarixiy tahlili: <https://journals.uz/wp-content/uploads/2019/07/tarix-2019-02/114-123>.

²Mirziyoyev Sh.M. Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining XI syezdidagi nutqidan. 30.05.2023. // <https://uzlidep.uz/news-of-party/14425>.

³Темур тузуклари.-Тошкент.:Ўзбекистон, 2014. – 5 б.

boisdan, vaqtlar o'tishi bilan, ba'zi ijtimoiy davrlar boshqalari bilan almashinadi va har doim ham evolyutsion, ham inqilobiy o'zgarishlarning asosiy tugunlaridan biri mulk bilan bog'liq bo'lib kelgan. Mulk — moddiy va ma'naviy ne'matlarning muayyan kishilar egaligida bo'lishi va ular tomonidan o'zlashtirilishini nazarda tutadi deyish mumkin. Mulkga egalik qilish huquqi, bu kishilar o'rtasidagi iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar bo'lib, ularni bo'lish, taqsimlash jarayonida mulk obyektlari yer va yer osti boyliklari, korxonalar, bino, inshootlar, mashina va uskunalari, tayyor mahsulot, pul, qimmatli qog'ozlar, san'at va adabiyot asarlari, ilmiy va texnikaviy ishlanmalar hisoblanib, ushbu munosabatlarni amalga oshiruvchi vositalar sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotda mulk, mulkiy munosabatlarga, mulkdorlar qatlamining shakllanish va rivojlanish genezisiga alohida e'tibor qaratilib, dastlabki qarashlar antik davrga xosligi hamda bu borada Aristotelning xizmatlari beqiyosligi ta'kidlanadi. U "Foydalanish, aftidan, mol-mulkni sarflash va berishdir, sotib olish va saqlash esa egalik qilishdir"¹ - deb ta'kidlaydi. Aristotel qarashlarida xususiy mulk muhim o'rin tutgan, ammo, uning Aflotun (Platon) qarashlaridan farqli o'laroq, uni erkin fuqarolarning barcha qatlamlariga tatbiq etganligi bilan ahamiyatlidir. Ijtimoiy-falsafiy ta'limotlarga ko'ra, Aflotun xususiy mulkchilikdan odamlar aziyat chekadi, desa, Aristotel unga qarshi chiqib, mulkchilik munosabatlarisiz davlatni barpo etib bo'lmaydi. Aynan mulkchilik munosabatlari qaror topgan davlatdagina, iqtisodiy faoliyat yuritish uchun erkinlik ta'minlanadi. Bu esa, xususiy mulk egalari erkin faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Shu boisdan, Aristotelning mulkdorlarning mulkdan foydalanishining ikki yo'li: "yangisini yaratish maqsadi bo'lgan uy xo'jaligini yuritish va mavjudini ko'paytirishdan iborat bo'lgan boylik orttirish san'atini amalga oshirish"² - deb ta'kidlaydi.

Shuningdek, qadimgi Sharqda xususiy mulkchilik va savdo-sotiq munosabatlari nisbatan tez rivojlana boshlagan davlat bu Ko'xna Bobil bo'lib, unda Xammurabi (m.a. 1792–1750 y.) podsholik qilgan davrda yuzaga kelgan qonunlar to'plami muhimligi bilan ajralib turadi. Xususan, unda fuqarolarining mulkini himoya qilish, ijara, sudxo'rlik va ishga yollash masalalariga e'tibor qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Shu boisdan, Xammurabi qonunlarida "ishlab chiqarishni, birinchi navbatda, qishloq xo'jaligini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga, shuningdek, mehnatsiz daromad topishga qarshi kurashishga qaratilgan bo'lib, bironing xususiy mulkiga ko'z olaytirgan, unga zarar yetkazganlar iqtisodiy jihatdan jazolangan"³ ligi ko'rsatilgan. Ijtimoiy mehnat taqsimoti davlat va fuqarolar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar hamda dastlabki ijtimoiy-falsafiy fikrlar paydo bo'lgan mamlakatlardan biri qadimgi Hindiston bo'lib, uning muqaddas manbalari bo'lgan "Manu qonunlari" (m.a. IV-III asrlar) hamda Veda'larda o'z aksini topgan. Jumladan, Hind Vedalari o'z zamonasi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy hayotini aks ettiruvchi yirik madaniy-ma'rifiy

¹ Павлович С.Д. Трансформация отношений собственности в современной России. <http://www.dslib.net/econom-teoria/transformaciya-otnoshenij-sobstvennosti-v-sovremennoj-rossii.html>.

² O'sha manba.

³ Асатуллаев Х., Джумонов Д., Аллаберганов З. ва бошқалар. Иқтисодий таълимотлар тарихи. - Тошкент., 2014. – 8 б.

meros hisoblanadi. Xususan, unda “jamiyat a’zolari asosan to’rtta yirik tabaqaga: braxmanlar (xudojo’ylar), kshatriylar (hukmdorlar, harbiylar), vayshalar (yer egalari, hunarmandlar, savdogarlar) va shudralarga (mehnatkashlar) bo’linganligi qayd etilgan”¹. Shu sababli, bu davrga kelib, Hindistonda chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik rivojlanganini, dastlabki suv inshootlari barpo etilib, savdo-sotiq jadallik bilan odimlaganini ko’rsatadi.

Darhaqiqat, tabiat, jamiyat va inson borlig’i bilan mavjud mulkiy munosabatlar haqidagi ilk g’oyalarni “Avesto”da mukammal darajada o’z aksini topgan deyish mumkin. “Avesto”da yer nafaqat mulkiy munosabatlar obekti, balki insonning moddiy ehtiyojlarini qondirishning ma’naviy vositasi sifatida ham ifodalangan. Binobarin, “Avesto”da ko’chat ekish har bir insonning ma’naviy burchi hisoblanishi, ekmaslik baxtsizlik va gunoh ekanligi ta’kidlangan². Shu sababli, o’sha davrdanoq mulk masalalari jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga, odamlarning jamiyatdagi mavqei mulkning miqdori bilan birga, ularning iqtisodiy xavfsizligini ham ta’minlashga xizmat qilganligini ko’rish mumkin. Shu boisdan, “bundan 2700 yil muqaddam “Avesto”da “inson” tushunchasiga berilgan ta’rifda tirik organizm va uning oziq-ovqatga bo’lgan ehtiyoji rivojlangan jamiyatda bu oziq-ovqatni mulk yordamida ta’minlash”³ - mumkin deb bekorga aytilmagan.

Muqaddas dinimiz Islomda ham jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarga oqilona baho berilgan bo’lib, odamlarni halollik va to’g’rilikka buyuriladi, hamda yolg’on gapirish, o’g’rilik, mehnatsiz daromad topish man qilinadi. Mulkning muqaddasligi, birovning mulkiga xiyonat va hatto hasad qilish katta gunoh ekanligi qayd etiladi (Moida surasi, 38-oyat).

Shuningdek, tadqiqotda Al-Farg’oniy, Al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Ibn Xaldun, Nizom-ul-mulk, A.Temur va boshqa ko’plab Sharq renessansi asoschilari o’sha davrdagi tijorat, mulkdorlik sirlarini tadqiq etish orqali, umumbashariy iqtisodiy taffakkurni shakllanishiga qo’shgan hissalarini qiyosiy tahlil etiladi. Xususan, A.Temurning “Tajribamda ko’rilgankim, azmi qat’iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir”⁴ degan fikrlari, yoki, Ibn Xaldunning “Davlatning kuchi va qudrati, aholining soni, boylik va farovonlikka bog’liqdir”. Davlat uchun soliqlar zarurligini, soliqlar yana aholining o’ziga qaytib kelishini. “Aholining boylik manbaini bozor va savdo munosabatlari tashkil etadi”⁵, deb ta’kidlagani naqadar dolzarblik kasb etayotgani hammamizga ayyondir.

Dissertatsiyada bir qator G’arb olimlarining mulkdorlar qatlamini shakllanishiga oid fikrlari ham tahlil qilingan. Jumladan, ingliz iqtisodchisi R.Kantilyon fikricha, “tadbirkor –tavakkalchilik sharoitida faoliyat ko’rsatayotgan va turli daromad manbalariga ega bo’lgan kishi: sotuvchi, fermer, hunarmand, qashshoq mayda mulk egasi va x.k., daromadlarning noaniqligi asosiy ahamiyat kasb etishi bilan birga, tavakkalchilikka tayyorgarlik tadbirkorlikning asosiy farqli

¹ A.Choriyev. Inson falsafasi. –Toshkent.: O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007.- 9-b.

² Авесто. –Тошкент.: Шарк, 2001. - 363 б.

³ O’sha manba.

⁴ Темур тузуқлари.-Тошкент.:“Ўзбекистон”, 2014.-8-б

⁵ А. Раззоков, Ш. Тошматов, Н.Ўрмонов. Иқтисодий таълимотлар тарихи. –Т.: «Молия», 2002. – 41 б.

xususiyati”¹. Ingliz mutafakkiri A.Smit biznes va tadbirkorlikni shaxsiy foyda olish uchun tavakkalchilik tijorat g‘oyasini amalga oshiruvchi, mulkdor deb tavsiflaydi. Mulkdor ishlab chiqarishni tashkil qiladi, rejalashtiradi, uning natijalarini o‘zlashtiradi”². Nemis olimi Y.Shumpeter “tadbirkorlikni iqtisodiy rivojlanishning yetakchi harakatga keltiruvchi kuch deb ataydi. Ishlab chiqarish omillarini hamma yangi kombinatsiyalari (birikuvlari) yordamida yangilikni amalga oshiradigan va shu asosda iqtisodiy o‘zlashni ta‘minlaydigan kishilarni olim ijodiy tadbirkor deb ataydi”³. F.Xayyek uchun oliyva dahlsiz qadriyat bu – insonning boshqa kishilar irodasiga bo‘ysinishini istisno etgan holda, erkin harakatlanishi hisoblanadi. Shu sababli, “tadbirkorlik ruhining yo‘qligiga sabab bo‘ladigan holatlar mazkur hudud aholisining tug‘ma xususiyati emas, balki mavjud urf-odatlar va institutlar tomonidan yuklanadigan chegaralanishlar oqibatidir”⁴.

Bizning fikrimizcha, mazkur manbalar Uchinchi Renessans va mulkdorlar qatlami to‘g‘risidagi yaxlit konsepsiyani rivojlantirish uchun mustahkam nazariy-metodologik asos yaratgan. “Mulkdorlar qatlami” to‘g‘risidagi g‘oya va qarashlarning ma‘no-mohiyatiga, uni jamiyat rivojlanishi bilan qanday tarzda bog‘lab tushunishga, talqin etilishi, hamda hayotga tatbiqiga bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek, mulkdorlar qatlami, bir tomondan, jamiyatning insoniyat rivojlanishidagi o‘rni, roli va xususiyatlarini baholash uchun ma‘lum bir koordinatalar tizimini shakllantirishga, ikkinchi tomondan, uning hozirgi holatini (oldindan shartlar, mustaqillik yillaridagi islohotlarning mazmuni va oqibatlari) va keyingi rivojlanish istiqbollari aniqlashga yordam beradi. Darhaqiqat, mahalliy olimlarimizning davlat mulkchilik nazariyasini rivojlantirishga qo‘shgan ulkan hissasiga qaramay, mulkdorlar qatlamining mohiyati va mazmunini, uning shakllanishi genezisi va tuzilishini aniqlash masalalari munozarali bo‘lib qolmoqda deyish mumkin.

Ikkinchi bob “Jamiyatda Uchinchi Renessans jarayonida mulkdorlar qatlamining shakllanish tendensiyalari” deb nomlanib, u, “Uchinchi renessans bosqichida mulkdorlar qatlami ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy negizlarining transformatsiyasi”, “Mulkdorlar qatlamining fuqarolik jamiyati rivojida sotsiamadaniy taraqqiyotga ta‘siri” nomli ikki paragrafni o‘z ichiga oladi. Unda mulkdorlar qatlami ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy negizlarining transformatsiyasi hamda ushbu qatlamning fuqarolik jamiyati sotsiomadaniy taraqqiyotga ta‘siri chuqur ijtimoiy – falsafiy jihatdan o‘rganilgan va tahlil qilingan.

Jahon iqtisodiyotida bugungi kunda, insoniyat taraqqiyotining oldingi davrlaridan farqli o‘laroq, yangi-yangi tendensiyalar vujudga kelmoqda. Iqtisodiyot sohasida raqobat nihoyatda kuchayib, dunyo bozoridagi vaziyat murakkablashmoqda, mamlakatlar iqtisodiyoti va iqtisodiy munosabatlarining ma‘no-mazmuni, xarakteri yangicha ahamiyat kasb etmoqda. Aytish mumkinki, insoniyat XXI asrga iqtisodiy va demografik inqirozlar, biologik xavf-xatarlar va turli muammolar bilan kirib kelmoqda. Ko‘z o‘ngimizda buzg‘unchi harakatlar sodir bo‘lmoqda, sayyoramizda iqlim o‘zgarishlari, yer, suv va havoning keskin

¹Hebert. K., Link.A.The Entrepreneur.-N.Y., 1982. 51 - P.

²Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Соцэкгиз, 1962. - 332 с.

³Шумпетер Й. Теория экономического развития. – М.: Директмедиа Паблицинг, 2008. – 169 с

⁴Хайек Ф. Дорога к рабству. - М., 2005. – 8 с.

ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayib ketishi kuzatilmoqda. Bu xavfli omillar barcha mamlakatlarga, jumladan, O‘zbekistonga ham jiddiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bunday murakkab vaziyatda mamlakatlar o‘z iqtisodiyotini doimiy ravishda takomillashtirib, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan bog‘liq bo‘lgan vazifalarni puxta belgilab, ularni hayotga tatbiq etish mexanizmlarini joriy etish muhim hisoblanadi. Shu boisdan, mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning asl maqsadi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash, hamda shu orqali aholi turmush farovonligini yaxshilashga erishishdan iborat. Shuningdek, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy negizigadagi yangicha yondashuvlar, bozor iqtisodiyotiga asoslangan ijtimoiy munosabatlarning qaror topishi va mulkdorlar qatlamining shakllanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, jamiyatlar rivoji tarixida “mulk”, “mulkka munosabat”, “mulkdorlarga munosabat” masalasiga turlicha yondashib kelinganligi bilan asoslanadi. Ayniqsa, dissertatsiyada bugungi kunda jamiyat rivojiga “formatsion” yondashuv o‘rniga yangicha qarashlar shakllanayotgan bo‘lsa-da, kishilar ongi va dunyoqarashida u bilan bog‘liq yondashuvlar, qarashlar o‘zlarining ayrim stereotiplarini saqlab qolganligi ta‘kidlanadi.

Ma‘lumki, har qanday jamiyatning ijtimoiy hayotini tahlil etganda, eng avvalo, iqtisodiy nuqtai-nazardan mulk kimga tegishli, kishilarning yashashi uchun zarur bo‘lgan moddiy sharoitlarni kim tasarruf etadi va ularning xo‘jayinlari kim, degan savolga duch kelishimiz tabiiydir. Shu boisdan, har qanday jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy tizimi mulkchilik munosabatlaridan boshlanadi hamda ularni qo‘llab-quvvatlash davr talabi hisoblanadi. “Xususiy mulk huquqlari himoyasi va tadbirkorlikni rivojlantirish hamda biznes yuritish uchun shart-sharoitlarni yanada yaxshilash, tadbirkorlikni rivojlantirishga oid islohotlarni izchil davom ettirish bilan bog‘liq vazifalar dolzarbligini saqlab qolmoqda”¹ – deb ta‘kidlagan edi Prezident Sh.Mirziyoyev.

Darhaqiqat, Yangi O‘zbekistonni barpo etish orzusi o‘zining yangi ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy negizini yaratishi, hamda mulkdorlar qatlamining shakllanishi va qaror topishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berishi bilan ahamiyatlidir. Avvalo, zarur ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy asoslarni shakllantirmasdan, tegishli qonunlar va meyoriy hujjatlarni qabul qilmasdan turib, islohotlarni amalga oshirishning ishonchli kafolatini yaratib bo‘lmaydi. Chunki mustahkam negiz yaratilgan taqdirdagina, mamlakatimiz aholisining barcha qatlamlarini manfaatlari hamda huquq va erkinliklarini ta‘minlashga xizmat qiladigan kuchli ijtimoiy asoslar yaratiladi va Yangi O‘zbekistonning yorqin kelajagiga ishonch paydo bo‘ladi. Zero, taniqli faylasuf Adam Smitning - “Mulkka ega bo‘lish huquqi bo‘lmagan odam hamisha kamroq ishlab, ko‘proq yeyishga intiladi. Mulkka egalik huquqi – muqaddas huquq – mehnat qilish huquqiga tayanadi. Mehnat har qanday mulkning asosidir. Hech vaqosi yo‘q kishining ham chaqqon qo‘llari bor. Kimda-kim uni ana shu qo‘llarini ishlatish huquqidan mahrum qilsa, uning eng muqaddas huquqidan mahrum qilgan hisoblanadi”². Demak, inson mehnat qilish huquqidan

¹Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - T.: O‘zbekiston. 2021 . 142-bet.

²Адам Смитнинг “кўринмас қўл”и. 31.03.2012. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/falsafa/adam-smitning-korinmas-qi>.

to'liq foydalanishi uchun uning qo'llarini yechib yuborish kerak. Mulkka egalik qilish huquqi esa insonning nafaqat qo'llarini, balki ruhini ham ozod qilish kerak. Natijada uning chaqqon qo'llari qo'l emas, chinakam qanotga aylanib ketadi va haqiqiy mulkdor sifatida o'zini namoyon qiladi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar "Tadbirkor boy bo'lsa, xalq ham, davlat ham boy bo'ladi"¹ degan tamoyil asosida tashkil etilayotgani, agar odamlarning tadbirkor, mulkdor bo'lishga intilishiga amaliy yordam berilsa, mamlakatda chinakam bunyodkorlik yanada keng quloq yozadi. Darvoqe, jahon falsafasining yetuk namoyandalari "Aristoteldan boshlab Russo va Gegelgacha bo'lgan barcha mutafakkirlar xususiy mulkni mustaqil fuqarolar yaratadi"²- degan fikrlarini naqadar o'rinli ekanini, tadbirkor va mulkdorlar bilan minglab oilalarga baraka kiradi, yuz minglab yangi ish o'rinlari yaratiladi. Eng muhimi, xalqning ertangi kunga bo'lgan ishonchi ortadi, turmush tarzi ijtimoiy madaniy jihatdan rivojlanishiga olib keladi. Demak, tadbirkor va mulkdorga sharoit yaratib, odamlarni ishbilarmon qilish hozirgi paytda hayotiy zaruratdir. Zero, mamlakatimizda mulkdorlar qatlamining asosi bo'lmish, kichik va xususiy tadbirkorlikning YAIM hamda aholini bandligini ta'minlashdagi ulushi ortib borayotgani buning yaqqol misoli deyish mumkin. Masalan, 2019-yilda 56,0%, 2020-yilda 55,7%, 2021-yilda 54,9%, 2022-yilda esa YAIMdagi ulushi 51,8%ni tashkil qilgan bo'lsa, aholining bandligi ko'rsatkichlari esa, 2019-yilda 76,2 %, 2020-yilda 74,5%, 2021-yilda 74,4 %, 2022-yilda esa 74,4%ni tashkil qilgan³. Dissertatsiyada o'tgan oxirgi 4 yildagi raqamlar o'rtasidagi nomutanosibliklarni koronavirus pandemiyasi sabablari deb izohlanishi bilan birga, keyingi yillarda O'zbekistonda tadbirkorlikning keng taraqqiy etishini esa, ularni qo'llab-quvvatlash borasida hukumat olib borayotgan iqtisodiy islohotlarning natijasi sifatida baholangan.

Shuningdek, dissertatsiyada mamlakatimizda olib borilayotgan samarali islohotlarga qaramay, bu borada ba'zi bir muammolar ko'zga tashlanayotganligi ta'kidlanadi. Jumladan, dissertatsiyada o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlarda respondentlardan, "Mamlakatimizdagi umumiy holat, unda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarni qanday baholaysiz"? degan savol tahlil qilinganda, ularning (aksariyat qismi 68% ijobiy) 37,6 %i "ijobiy, barcha sohalarga alohida e'tibor qaratilib, samarali o'zgarishlar yuz bermoqda"; 16,6%i "yaxshi, odamlarning yashash sharoitlari yaxshilanib bormoqda"; 14,1%i "odamlarda yangi O'zbekistonga nisbatan ishonch ortmoqda", deb javob ko'rsatishgan bo'lsa, qolgan (34,7%-salbiy) 25%i "o'rtacha, o'zgarishlar faqat markazlarda kuzatilmoqda, chekka hududlarda holat o'sha-o'sha"; 6,7%i esa "yomon, islohotlar nomigagina amalga oshirilmoqda" degan javoblarni ko'rsatishga⁴. Olingan natijalar, odamlarning Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga nisbatan pozitiv munosabatda bo'lishi bilan birga, ularning ba'zilarining ongi va

¹ Murojaatnoma-2020: tadbirkorlik rivoji yo'lidagi muhim qadamlar. <https://yuz.uz/news/murojaatnoma-2020-tadbirkorlik-rivoji-yolidagimuhim-qadaml>.

² Fuqarolik jamiyati. -T., 2016. - 56b..

³ Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIM ulushi. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>

⁴ Muallif tomonidan o'tkazilgan tadqiqot ma'lumotlari asosida tuzilgan.

dunyoqarashida ayrim salbiy stereotiplar saqlanib qolgan deb hisoblanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, fuqarolarni xususiy mulkka nisbatan munosabatini bilish maqsadida, o'tkazilgan savol tahliliga ko'ra, ularning 63,8%i "ijobiy, agar u halol daromad keltirsa"; 7,9%i esa "xususiy mulkning raqobat bardorligi narxlarni pasaytirayapdi" deb ularni yoqlab ko'rsatishgan bo'lsa, 21,4%i "xususiy mulk bozordagi narx-navoni ko'tarib yuboriyapdi", 6,9% i "salbiy, agarda u tufayli mulkdorlar halollikdan voz kechsalar" deb javob bergani ma'lum bo'ldi¹. Ushbu so'rov natijalari esa, xususiy mulk faoliyatini shakllanishida moddiy (daromad, manfaat) qadriyatlar bilan birga ma'naviy qadriyatlarining o'rnini ham muhim ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi.

Bugungi kunda tadbirkorlik faoliyatini boshlashda qanday to'siqlar mavjudligini aniqlash maqsadida, berilgan savolga, 38,6%i "boshlang'ich mablag' yetarli emasligini"; 25,7%i "tadbirkorlik faoliyati bo'yicha bilimning yetarli emasligi"; 10,5%i "tadbirkorlik faoliyatida turli byurokratik to'siqlarning yuqoriligi"; 7,7%i "kredit olishda noqulayliklarning mavjudligi"; 7,3%i "solliqlar juda yuqoriligi"; 6,2% "monopoliyaning kuchliligi" deb ta'kidlashgan bo'lsa, qolgan 4%i da "xoxish-istakning yo'qligi" deb javob bergani ma'lum bo'ldi².

Tadqiqot natijalari, mamlakatda amalga oshirilayotgan izchil islohotlarga qaramasdan, hali ham, ushbu sohani rivojlantirish bilan bog'liq muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa, mulkdorlar qatlaminin haq-huquqlarini qonuniy ta'minlash va himoya qilishning samara beradigan mustahkam bazasini yaratishni talab etadi. Buni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Bizning yana bir muhim vazifamiz – kichik biznes va tadbirkorlik sohasini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, mamlakatimiz iqtisodiy qudratini, yurtimizda tinchlik va barqarorlik, ijtimoiy totuvlikni mustahkamlashdan, bu soha ulushini yanada oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berishdan iborat"³. Zero, "Manfaatdorlik va adolat bo'lgan joyda, albatta o'zgarish va o'sish bo'ladi"⁴ - degan so'zlari ham ifodalaydi. Bunga erishish uchun esa, iqtisodiyotni yanada liberallashtirish, kichik va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini asoslashni, shuningdek, eng muhimi aholining dunyoqarashini o'zgartirishni taqozo etadi.

"Yangi taraqqiyot davrida mulkdorlar qatlami transformatsiyasining prinsiplari" deb nomlangan uchinchi bob "Yangi rivojlanish bosqichida mulkdorlar qatlaminin jamiyat innovatsion rivojiga ta'siri" hamda "Jamiyatda mulkdorlar qatlaminin barqarorligi kambag'allikni qisqartirish omili sifatida" nomli ikki paragrafdan iborat. Unda mulkdorlar qatlaminin jamiyat innovatsion rivojiga ta'siri hamda ushbu qatlaminin kambag'allikni qisqartirish omili ekanligi ijtimoiy-falsafiy jihatdan ochib berilgan. Xususan, bugun dunyo uchinchi ming yillikka qadam qo'ydi. Jahonda rivojlangan mamlakatlarda global iqtisodiy, siyosiy,

¹Muallif tomonidan o'tkazilgan tadqiqot ma'lumotlari asosida tuzilgan

²Muallif tomonidan o'tkazilgan tadqiqot ma'lumotlari asosida tuzilgan

³Mirziyoyev.SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz // «Xalq so'zi», 15 dekabr 2016 yil.

⁴Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi"- Toshkent.: O'zbekiston, 2021. – 152b.

ijtimoiy va ma'naviy sohalardagi yangilanishlar bilan bir qatorda, tinchlik va barqaror taraqqiyotga tahdid soluvchi xavf-xatarlarni ham o'z boshidan kechirmoqda. Shu nuqtai nazardan, bir tomondan, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlayotgan, raqamli texnologiyalarning rivoji inson aqli imkoniyatining cheksizligini namoyon etsa, ikkinchidan insoniyat o'z aqli va tafakkuri mahsuli bo'lgan kashfiyot va ixtirolar insoniyat boshiga katta kulfat va balolarni keltirib chiqarayotgani ham sir emas. Shu sababli, yangi taraqqiyot bosqichida turgan O'zbekiston bugungi globallashuv, raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlangan mamlakatlarning innovatsion faoliyatni tashkil qilish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha xalqaro tajribalarini o'rganish va ulardan samarali foydalanish orqali jozibador innovatsion muhitni yaratishni talab etadi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatimiz yuksak taraqqiyotga erishish maqsadida innovatsion rivojlanish bosqichiga o'tayotgani, "Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni aynan innovatsion g'oyalar asosida boshlashimiz kerak. Innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot yo'liga o'tishimiz bejiz emas. Chunki, zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi"¹– deb bejiz ta'kidlamagan.

Bizningcha, innovatsiya – bu bilimga asoslangan, axborotlashgan (postindustrial) jamiyat va axborotlashgan iqtisodning o'zaro bog'liqligida namoyon bo'ladigan tushunchadir. Shu sababli, postindustrial jamiyatning rivojlanishi axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirilgan tizimlar, yangi-yangi sohalardagi ilg'or texnologiyalarga asoslangan innovatsion o'zgarishlar bilan amalga oshiriladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Rossiya Fanlar akademiyasi akademigi V.Makarov, innovatsiya tushunchasini bilimga asoslangan iqtisodiyot tushunchasi bilan o'xshash ekanligini ta'kidlab, "bilimni texnologik moddiyatga aylanishi holatini hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini, bilimlarni ishlab chiqarish esa iqtisodiy o'sishning asosiy manbasi ekanligini qayd etadi"². Avstriyalik iqtisodchi Y.Shumpeter o'zining "ijodiy halokat" nazariyasida innovatsion jarayonlarni "tadbirkorlarning yangi mahsulot va xizmatlarni yaratishda mavjud narsalardan foydalanishni boshqa zamonaviy usullar sifatida ko'rib chiqishni taklif qiladi"³. U innovatsion o'zgarishlarni 5 yo'nalishga: "yangi texnik va texnologik jarayonlarni qo'llash; yangi xususiyatlarga ega bo'lgan mahsulot turlarini yaratish; yangi xomashyolardan foydalanish; ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish va yangi innovatsion tovarlar bilan ta'minlash; yangi iste'mol bozorlarini ochish"⁴ kabilarga ajratgan.

Shu boisdan, dissertatsiyada innovatsion faoliyatni rivojlantirishga bo'lgan e'tibor mamlakat iqtisodiyotining inqiroz oqibatlarini yengib o'tishga qodirligini, innovatsion faoliyat qandaydir yangilikni tatbiq etishning yagona harakati emas, balki yangiliklarni ishlab chiqish, tatbiq etish, o'zlashtirish, amaliyotga singdirish

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: 2018. 19-20 b.

²Макаров, В. Контуры экономики знаний. //Экономист. -М, 2003.- № 3. -14 с.

³Шумпетер Й. Теория экономического развития. - М.: Директ-Медиа, 2007.- 4с.

⁴O'sha manba

bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tizimi ekanligi ta'kidlanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasini global innovatsion indeksdagi o'rnini yaxshilash va 2030 yilga qadar top-50 mamlakatlari qatoriga kirishdek muhim vazifa belgilangani, uni amalga oshirishda yangi dunyoqarashga ega bo'lgan mulkdorlar qatlamining o'rnini, ularning zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar va innovatsion yutuqlardan maqsadli foylangan holda, aholi hayot darajasi va farovonligi, ish bilan bandligini ta'minlash, ishsizlik va kambag'allikni oldini olish, eng muhimi jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga erishish mumkinligi ijtimoiy-falsafiy jihatdan ochib berilgan.

Ma'lumki, har xil mulkchilik sharoitida turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlarning bo'lishi tabiiy holatdir. Manfaatlarning xilma-xilligining yuzaga chiqishi jamiyat taraqqiyoti uchun muhim turtki bo'lib, u shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarida o'zaro uyg'unlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Odamlar o'zlarining manfaatlarini qanchalik aniq ko'rib, unga amin bo'lib borsalar, bunday tuyg'u ularni ijtimoiy faollikka hamda har xil salbiy ko'rinishdagi nosog'lom illatlardan saqlaydi. O'z manfaatini aniq ko'rgan odamning maqsadi ham aniq bo'ladi. Bu turli manfaatlarni o'zida mushtarak etgan mulkdorlar qatlamining jamiyat innovatsion taraqqiyotiga o'zlarini safarbar etishiga ham olib keladi.

Shuningdek, dissertatsiyada "kambag'allik" va "qashshoqlik" umumbashariy global muammo sifatida, uzoq davrlardan buyon dunyo ahlini, olimu fuzalolarni, yetuk mutaxassislarni o'ylantirib kelayotganligi ta'kidlanadi. Darvoqe, "buyuk izlanishlar, inqilobiy ixtirolar yoki madaniyat va jamiyatning rivojiga katta hissa qo'shganligi uchun har yili taqdim etiladigan eng nufuzli xalqaro mukofotlardan biri bo'lgan Alfred Nobel mukofoti 2019-yilda iqtisod fanlari bo'yicha "Global qashshoqlikka qarshi kurashdagi eng yaxshi yo'llar bo'yicha ishonchli javoblarni olishda yangicha yondashuv" ishlab chiqilganligi uchun berilganining o'zi ham qashshoqlik masalasi jahoniy muammo ekanidan va unga bo'lgan e'tibor aslo susaymayotganidan dalolat beradi"¹. Xususan, BMT ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi davrda "54 mamlakat, 1990-yilga nisbatan kambag'al holda yashaydi, 21 mamlakatda aholining ko'pchilik qismi ochlikdan azoblanadi, 12 mamlakatda bolalarni boshlang'ich savodxonlikka erishishi pasayib bormoqda, 34 mamlakatda umr davomiyligi qisqardi, 800 mln.dan ortiq kishi oziq-ovqat yetishmasligidan qiynaladi"². Hattoki, dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari bo'lmish "Xitoy (mamlakat aholisining 65 foizini) va AQShda (16 foiz) ham qashshoqlik mavjud ekanligi, iqtisodiy qudrati bo'yicha jahonda uchinchi o'rinda turuvchi Yaponiyada har oltinchi Yapon kambag'al hisoblanadi va ularning asosiy sababi ishsizlikdir"³. Bu kabi ma'lumotlar "kambag'allik" va "qashshoqlik" muammolarini dolzarbligicha qolayotganligini ko'rsatmoqda.

Dissertatsiyada kambag'allik tushunchasiga to'xtalib, BMTning ta'rifiga ko'ra, qashshoqlik- "bu insonning umrguzaronlik qilishi uchun zarur bo'lgan daromad va resurslar yetishmasligi, ochlik va to'yib ovqatlanmaslik, ta'lim,

¹Mirziyoyev.SH.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". - T.: O'zbekiston, 2021. - 435.b.

²"Глобальные цели тысячелетия" Доклад. Узбекистан. //Экономическое обозрение. -2004.- №10

³Королёва Н.В., Чинишвили.В.В. Бедность как социально-экономическая проблема. //The scientific heritage. М. - 2020. -№0 43.-31-37 с.

sogʻliqni saqlash yoki boshqa asosiy xizmatlardan foydalanishda cheklovlarning mavjudligi, turar joyning yoʻqligi, xavfli tabiiy va texnogen muhitda hamda ijtimoiy tengsizlik sharoitida yashashiga nisbatan aytiladi”¹ (BMT ning “Ijtimoiy himoya borasidagi yuqori darajadagi Butun jahon sammiti”dan). Oʻzbek tilining izohli lugʻatida “kambagʻallik” soʻzi kam, yetishmaydigan, hayotiy tirikchilikka zarur narsalarning yetishmaslik holati, yoʻqchilik yoki muhtojlikda yashamoq maʼnolarini bildiradi”². Oʻzbek tilida “kambagʻallik” soʻzi bir qancha soʻzlar bilan ifodalanadi. Jumladan, qashshoq, faqir, nochor, kam taʼminlangan, muhtoj, bechora, ijtimoiy himoyaga muhtoj kabilar boʻlib, ushbu soʻzlar maʼlum maʼnoda bir-biridan farq qilib, oʻzining qoʻllaniladigan joylari mavjudligini koʻrsatadi, shu sababli, “kambagʻallik” tushunchasiga yagona taʼrif mavjud emasligi taʼkidlanadi. Shuningdek, dissertatsiyada, mamlakatimizda kambagʻallikni qisqartirish borasida tizimli chora tadbirlar amalga oshirilayotganiga qaramay, bu borada koʻplab muammolar, xususan, aholining yetarli bilim va malakaga ega emasligi, ularning mehnat bozorida raqobatga dosh berolmasligi, ayrim hududlarda ishsizlikning yuqori darajada ekanligi, yangi ish oʻrinlari tashkil etilishdagi muammolarning mavjudligi, boqimandalik kayfiyatining yuqoriligi, milliy urf-odatlardagi ortiqcha sarf-xarajatlar, taʼlim va tibbiyot tizimidagi salbiy holatlar va hududlarda ulardan foydalanish sifatining pastligi kabilar kambagʻallikka yetaklovchi asosiy sabablar sifatida saqlanib qolayotgani taʼkidlanadi.

Dissertatsiyaning toʻrtinchi bobi **“Jamiyatda ijtimoiy manfaatlar ijrosining mulkdorlar qatlami intellektual faoliyati bilan uygʻunligi”** deb nomlanib, u “Uchinchi renessans jarayonida intellektual mulkdorlar qatlamining inson manfaatlarini roʻyobga chiqarishdagi oʻrni”, “Mulkdorlar qatlami yuksalishi fenomeni fuqarolik jamiyati takomilining asosiy tamoyili”, Oʻrta mulkdorlar qatlami jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining kafolati: muammolar, yechimlar” deb nomlangan uchta paragrafdan iborat. Unda intellektual mulkdorlar qatlamining inson manfaatlarini roʻyobga chiqarishda va fuqarolik jamiyatini rivojlanishidagi oʻrni haqida fikr boradi. Xususan, dunyoda taʼlim, aloqa va axborot kabi bilimlarni koʻp talab qiladigan sohalar yanada jadal rivojlanmoqda, jamiyatda intellektual mulk va intellektual mulkdorlar qatlamining oʻrni va ahamiyati tobora kuchayib bormoqda. Bizning fikrimizcha, intellektual mulk bu ijodiy, aqliy faoliyat mahsuli boʻlib, intellektual mulkdor esa uning egasi, sohibi hisoblanadi. Intellektual mulk jamiyat ijtimoiy iqtisodiy sohalarini rivojlanishining tarkibiy qismlaridan biridir. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning deyarli barchasida intellektual mulk va mulkdorlar qatlamining shakllanishi va rivojlanishiga katta eʼtibor qaratilayotgani sababli, ularning investitsiyaviy jozibadorligi yaxshilangan, ularning ichki yalpi mahsulotdagi ulushi keskin ortganidir. Misol uchun, “intellektual mulk Yevropada yalpi ichki mahsulotning 45 foizini, Xitoyda 12 foizni, Rossiyada esa 7 foizni tashkil etadi”³. Dissertatsiyada bugungi texnologik taraqqiyot davrida intellektual mulk har bir mamlakat ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishida, uning global

¹Mirziyoyev.SH.M. “Yangi Oʻzbekiston strategiyasi”. -T .: Oʻzbekiston, 2021. -436.b.

²Madvaliyev. A. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. - T., 2006-2008.

³Intellektual mulkni himoyalashning huquqiy va tashkiliy asoslari takomillashadi. -<https://yuz.uz/news/intellektual-mulkni-himoyalashning-huquqiy-va-tashkiliy-asoslari-takomillashad>

iqtisodiyotdagi raqobatbardoshligini hamda insonlar turmush farovonligini ta'minlashda muhim tayanch ekanligi asoslab beriladi. Buning uchun, birinchidan, intellektual mulkdorlar qatlami va ularning mulk huquqini muhofaza qilish, ikkinchidan, esa ularni himoyalashga asosiy e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlanadi. Aynan, hozirgi davrda juda ko'p narsa virtual olamga ko'chdi va virtual tarzda tirikchilik qilayotganlar ham ko'paydi. Bu esa o'z-o'zidan intellektual mulk huquqining buzilishiga olib kelishiga sabab bo'lmoqda. Shu boisdan, tadqiqotda bugungi kunda O'zbekistonda intellektual mulk muhofazasi va ekspertizasi yaxshi tashkil qilinganiga qaramay, hozirgacha intellektual mulk huquqi himoyasiga oid sud amaliyoti to'laqonli shakllanmaganligi, shuningdek, tovar belgilari bilan bog'liq tajriba mavjud bo'lsada, lekin mualliflik huquqi va sanoat mulki obyektlari bilan bog'liq amaliyotga kam e'tibor qaratilayotganligi ta'kidlanadi. Bu kabi muammolarni bartaraf etish uchun dissertatsiyada quyidagi amaliy takliflar berilgan:

Birinchidan, mamlakatimizda intellektual mulkdorlar qatlamiga nisbatan samimiy munosabat va hurmat muhitini shakllantirish zarur.

Ikkinchidan, ushbu qatlam vakillari mamlakat iqtisodiyotida qancha foizni tashkil etishi, ularning yillik daromadlari qanchani tashkil etayotganligi haqida statistik ma'lumotlar yuritilishini ta'minlash kerak. Bunday statistik raqamlar esa, ularning o'zi yaratgan intellektual mulkdan qancha foyda ya'ni daromad qilayotganini bilish orqali, ularning o'zlariga nisbatan rag'batni paydo qiladi, natijada, bu sohani rivojlanishiga va intellektual mulkdorlar qatlamining soni ko'payishiga olib keladi.

Uchinchidan, bizda ixtirochi deganda, Fanlar Akademiyasida ishlaydigan olim, professorlar tushuniladi, lekin rivojlangan davlatlarda ixtirochilar aholining bir toifasi bilan chegaralanmaydi. Ixtirochi oddiy odam, o'qituvchi, olim, vrach, iqtisodchi, menejer, tadbirkor, malakali ishchi yoki boshqa kasb egasi bo'lishi mumkin. O'zbekistonda ixtirochilar kamligining sabablaridan biri ularga nisbatan rag'batning yetarli emasligi bilan bog'liq. Jumladan, «Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida»¹ gi qonunda mualliflar, sanoat mulkidan foydalanuvchilarga soliq va kredit imtiyozlari berilishi lozimligi qayd etilgan. Biroq bu normani amaliyotda tatbiq etilishi ham kamchiliklardan xoli emas.

Dissertatsiyada, intellektual mulk huquqiy va iqtisodiy tushuncha sifatida, bir-birini to'ldirib, o'zaro bir-biriga ta'sir ko'rsatishini, ularni ayri holatda ifoda etilishi uning konsepsiyasini qashshoqlashtirishini, iqtisodiy mazmun qonun ijodkorligi normalarida mustahkamlanganda huquqiy shaklni olishi ta'kidlanadi. Huquqiy shakl doimo iqtisodiy jihatdan amalga oshiriladi. Intellektual mulkning iqtisodiy mazmuniga e'tibor bermaslik, uning innovatsion iqtisodiyotdagi real muhim rolini ko'rsatishga imkon bermasligini, bu esa, bozor iqtisodiyoti munosabatlari rivojlanishi bilan intellektual mulkning iqtisodiy mazmunini o'zgarishiga ham sabab bo'ladi. Buning isboti, bugungi kunda ta'lim iqtisodiy o'sishning harakatlantiruvchi kuchiga aylanayotganidir. Ammo u egalarini

¹«Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida» yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2002- yil 29-avgustdagi 397-II-son/ [/lihttps://lex.uz/acts/75913](https://lex.uz/acts/75913).

o'zgartirmaydi, balki ularning sonini oshiradi. Natijada mamlakatning milliy boyligi ham ko'payadi. Hozirgi vaqtda intellektual mulk to'g'risida o'rnatilgan ilmiy tushuncha sifatida emas, balki doimiy qo'shimcha va o'zgarishlarga duch keladigan intellektual mulkdorlar qatlami sifatida fikr yuritish o'rinli ekanligi ta'kidlangan.

Darhaqiqat, yangi taraqqiyot bosqichida O'zbekiston Respublikasida milliy (raqamli) iqtisodiyotni rivojlantirish, aholining intellektual salohiyatini oshirishni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Raqamli Renessans davrida kasblar ham raqamli faoliyatni taqozo etadi. 2020 -yil oktabrda Jahon iqtisodiy forumining kasblar kelajagi to'g'risidagi hisoboti e'lon qilindi. Unga ko'ra, "2025- yilga borib, odamlar va texnika o'rtasidagi mehnat taqsimoti o'zgarishi tufayli yangi ish o'rinlari (97 million) yaratiladi hamda ayrim kasblar bo'yicha ishchilar soni(85 million) qisqaradi"¹. Bu esa o'z-o'zidan, ma'lumotlarni tahlil qiluvchi olimlar, sun'iy intellekt, katta ma'lumot (big data), raqamli marketing hamda strategiya, jarayonni avtomatlashtirish, biznesni rivojlantirish, raqamli transformatsiya, axborot xavfsizligi, dasturiy ta'minot bo'yicha mutaxassislariga talab ortishiga sabab bo'ladi.

Shu boisdan, dissertatsiyada, intellektual rivojlangan, ilmsevar avlodni tarbiyalash uchun sifatli ta'lim va tarbiyaning o'zi yetarli bo'lmasligi, buning uchun, avvalo, aqlli tibbiyot va aqlli oila yordamida raqamli intellektual qobiliyatni rivojlantirish va irsiyatni yaxshilash kerakligi ta'kidlanadi. Shuningdek, jamiyatda tabiiy boyliklar cheklangan bo'lsada, bilimlarning asosi bo'lgan inson qobiliyati cheksizligini ta'kidlash darkor. Mashhur olim Tomas Djefferson "Meni nochorlashtirmay fikrlarimni olib foydalangan inson, xuddi meni qorong'ulikka duchor etmay chirog'imning yorug'ligidan foydalangan inson kabidir"² -deb, aytgan fikrlari ayni haqiqatdir. Ya'ni, bilim va uning natijalarining ayirboshlanishi uning kamayishiga emas, balki undan ham ziyoda bo'lishiga olib keladi³. Bu bilan, har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishning eng muhim omili, bu bitmas-tuganmas hisoblangan inson omili ekanligidan, millatning ilmiy salohiyati va yuksak malakali intellektual qobiliyatli qatlami ekanligidan dalolat beradi. Vaholanki, eng achinarli tomoni shundaki, hozirgi davrda mamlakatimizda bu borada ko'plab muammolar mavjud bo'lib, iqtisodchilarimiz tilida bizdagi iqtisodiy model rivojlangan mamlakatlar bizga raqamli bilimlar (dasturiy ta'minot mahsulotlari va boshqalar) hamda texnologiyalarning nusxasini (qimmat narxlarda) sotayotganini ta'kidlash joiz. Buning evaziga biz ularga xalqning tabiiy boyliklari (oltin, gaz, paxta, mevalar va boshqalar)ni sotamiz, bu orqali ularning boyligi oshadi, bizda esa, tabiiy va moddiy boyliklarimiz shunday faol foydalanish natijasida kamayib borishiga olib kelishi uchun to'la asos bor deyish mumkin. Binobarin, rivojlangan mamlakatlar bugun tabiiy resurslarning atigi 3-5 foizidan foydalanib, qolganini kelajak avlodlar uchun keyingi ming yillikka saqlab

¹Uchinchi Uyg'onish davri tom ma'nodagi Raqamli Renessans demakdir. "Yangi O'zbekiston" gazetasi. 25.12.2022 . <https://yuz.uz/news/uchinchi-uygonish-davri-tom-manodagi-raqamli-renessans-demakdir>

²Макаров В.Л. Экономика знаний: уроки для России // Наука и жизнь. - М, 2003. - №5.

³ Акрамова Ш. Билимларга асосланган иқтисодиётда олий таълимнинг ўрни. Население Узбекистана: состояние, проблемы и перспективы: Монография. - Т.: 2012. - .207 с.

qo'yayotgani, ular ishlab chiqarayotgan va eksport qilayotgan asosiy mahsulot inson miya kapitali mahsuli, intellektual mahsulotlar hisobidan amalga oshirilayotgani ayni haqiqat deyishga asos bordir. Prezidentimizning "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹gi Farmoni, "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"²gi, "Elektron tijorat ma'murchiligini takomillashtirish va uni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish to'g'risida"³ gi qarorlari Uchinchi Raqamli Renessansga poydevor qo'yishda hamda intellektual mulkdorlar qatlamining soni va sifatining oshishiga dasturulamal bo'lib xizmat qiladi deb umid qilamiz.

Shuningdek, dissertatsiyada, mulkdorlar qatlamining yuksalishi fuqarolik jamiyatining takomillashuviga olib kelishi ijtimoiy-falsafiy jihatdan ochib berilgan. Xususan, bir qator faylasuflarning fuqarolik jamiyati konsepsiyalari chuqur tahlil qilingan. Jumladan, ma'rifatchi faylasuf Jon Lokk odamlarni fuqarolik jamiyatiga birlashish – bu tinch va farovon hayot kechirish, o'z mol-mulkidan xotirjam foydalanish va o'zini mazkur jamiyat a'zosi bo'lmagan odamlarga qaraganda xavfsizroq his qilish uchun imkoniyat bo'ladi deydi. U "davlat bo'lmagan joyda urush, qo'rquv, qashshoqlik, yolg'izlik, yovvoyilik, jaholat, davlatda – oqilonalik, xavfsizlik, boylik, tartib, bilim va olijanoblik hukm suradi deydi"⁴. Bu orqali, Jon Lokk xususiy mulkni mehnat bilan bog'lab, odamlar asosan o'z mol-mulkidan tinch va xavfsiz foydalanish maqsadida fuqarolik jamiyatiga birlashishini nazarda tutadi deyish mumkin. Shu bilan birga, G.Gegel fikriga ko'ra, –"fuqarolik jamiyati – bu, avvalo, xususiy mulkka asoslangan ehtiyojlar tizimi, shuningdek, din, oila, tabaqalar, davlat qurilishi, huquq, axloq, burch, madaniyat, maorif, qonunlar va ulardan kelib chiquvchi subyektlarning o'zaro yuridik aloqalaridir"⁵. Boshqacha aytganda, Gegel fuqarolik jamiyatini yovvoyilik, qoloqlik, ma'rifatsizlikka qarshi turadigan va kurashadigan jamiyat ko'rinishi sifatida talqin etgan.

Dissertatsiyada xususiy mulk nafaqat fuqarolik jamiyatini iqtisodiy asosini tashkil etishi, balki siyosiy, axloqiy, madaniy yangilanishlarga ham asos bo'ladi degan xulosa keltirilgan. Zero, "xususiy mulk bu, birinchidan, insonning xususiy hayot tarzini belgilab beradi; ikkinchidan, tashabbuskorlik va ishbilarmonlikni o'zaro bog'laydi; uchinchidan, mulkdorda o'ziga ishonch paydo qiladi; to'rtinchidan, insonga mehnatga ijodiy yondashish hamda Vatanga va davlatga nisbatan daxldorlik hissini tarbiyalaydi; beshinchidan, insonlarga o'troqlikni o'rgatib, ijtimoiy madaniyatni rivojlantiradi; oltinchidan, oilani jamiyatning xo'jalik yacheykasi sifatida mustahkamlab, uni mulkiy munosabatlarga jalb qiladi; yettinchidan, insonning huquqiy ongi va madaniyatini shakllantiradi, siyosiy

¹"Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son <https://lex.uz/docs/5030957>

²"Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risidagi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 17.02.2021 yildagi PQ-4996-son <https://lex.uz/docs/5297046>

³ "Elektron tijorat ma'murchiligini takomillashtirish va uni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.07.2022 yildagi 392-son <https://lex.uz/uz/docs/-6122858>

⁴Fuqarolik jamiyati.- Toshkent., 2016.-36 b.

⁵Гегель Г. Работы разных лет. Том 2. - Москва., 1973. – 50 с.

erkinlikka bo‘lgan to‘g‘ri yondashuvni tarbiyalaydi”¹. Darhaqiqat, yangi iqtisodiy taraqqiyot hamda fuqarolik jamiyati uchun ham xususiy mulk va mulkdorlar qatlamining ahamiyati muhimdir. Bu qatlamsiz to‘laqonli fuqarolik jamiyatini shakllantirib bo‘lmaydi. Aynan, yangi taraqqiyot bosqichida, O‘zbekiston sharoitida mulkdorlar qatlamining shakllanishi fuqarolik jamiyatining samarali rivojlanishiga olib keladi, deb ishonch bilan aytish mumkin.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot asosida quyidagi ilmiy-nazariy xulosalarga kelindi:

1. Jamiyat ijtimoiy-sinfy strukturasi bazasini mulkdorlar qatlami tashkil etadi. Mulkdorlar qatlami deb keng miqyosdagi moddiy-iqtisodiy va ma’naviy-madaniy ehtiyojlarni qondirish uchun yetarli darajada barqaror daromadga ega kishilarning ijtimoiy guruhi hisoblanadi. Ularning boyligi yoki mulki, daromadi «munosib» turmush sifatini ta’minlash uchun yetarli darajada bo‘ladi. Shu boisdan, ushbu qatlam vakillari nafaqat mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta’minlashda, balki ma’naviy-ma’rifiy sohalarda ham befarq emasligi bilan belgilanadi.

2. Mulkdorlar qatlamining rivojlanishi haqidagi qarashlar evolyutsiyasi shuni ko‘rsatadiki, mulkiy munosabatlar insoniyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining deyarli barcha jabhalariga singib ketgan bo‘lib, uni o‘rganishdan faqat iqtisodiyot yoki huquq, balki tarixiy, psixologik, sotsiologik, antropologik va falsafiy jihatdan yondashilganini ko‘rish mumkin. Eng muhimi, qadimgi davrlarda ham xususiy mulk - jamiyat mulki bilan bir qatorda rivojlanganligini va himoyalanganligini ko‘rsatadi.

3. O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ulug‘ maqsad belgilangan ekan, avvalo ushbu tushuncha mazmunini, tuzilmasini aniq ochib berish, uni aholining barcha qatlamlari, birinchi galda yoshlar ongiga, singdirish lozim. Shu boisdan, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish jamiyatni yanada demokratlashtirish, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini rivojlantirish, har bir sohada shaffoflikni kuchaytirish va aholini real ahvoldan xabardor etib, ularning faolligini yanada oshirishni ko‘zda tutadi.

4. Renessans deganda, madaniyat, san’at, ilm-fan, iqtisodiyot, ta’lim-tarbiya, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli bir xillikdan keyin qayta rivojlanish, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimining yangi sifat bosqichiga ko‘tarilib, bir tarixiy davrdan yangi bir tarixiy davrga qarab o‘tishini bildiradi. Renessans hodisasi birdan yuz berib qolmaydi. Unda sistema va element, mazmun va shakl, mohiyat va hodisa, sabab va oqibat, imkoniyat va voqelik, zaruriyat va tasodif dialektikasi o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Bu jarayonlar miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tishi, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni, inkorni inkor qonunlariga mos ravishda sodir bo‘ladi.

5. Renessansni amalga oshirish uchun, birinchidan, mamlakatda har tomonlama puxta o‘ylangan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, barcha soha va yo‘nalishlarda yangicha sifat o‘zgarishlari olib borilishi, ikkinchidan, uni amalga

¹Исупов К., Савкин И. Русская философия собственности (XVII-XX вв.). - СПб.: "Ганза", 1993. - 512 с.

oshiruvchi xalqning bunga tayyorligi, ularning ruhiyatida pozitiv kayfiyat, qat'iy irodali intilish, qolaversa, vatanparvar va millatparvar bo'lmog'i kerak.

6. Uchinchi Renessans poydevorini yaratish g'oyaning oraliq bosqich vazifalari aniqlanishi kerakligini ko'rsatadi. Masalan, 2030- yilda, 2040–2050-yillarda biz aholi jon boshiga taxminan qancha yalpi ichki mahsulot ishlab chiqaramiz, jahon reytingida taxminan qanday o'rinlarga ko'tarilamiz. Ta'lim, madaniyat, ilm-fan, iqtisodiyot sohalarida qanday ko'rsatkichlarni, marralarni zabt etamiz. Shuningdek, yangi AKT, nanotexnologiyalar, biotexnologiyalar, sun'iy intellekt yaratish va shu kabi yo'nalishlardagi vazifalar ham e'tibordan chetda qolmasligi zarur. Har qanday innovatsion rejalar, buyuk g'oyalar inson ehtiyojlari, turmushi yaxshilanishi, erkinligi ortishi va ma'naviy kamoloti bilan bevosita bog'lansagina, hayotiylik va reallik kasb etadi. Ular bo'yicha aniq maqsad va mo'ljallar belgilanishi lozim.

7. Mulkdorlar qatlami, xususan, kichik va xususiy tadbirkorlik nafaqat mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishni, balki oilalar jamlanma daromadlarining jadal va barqaror o'sishini ta'minlovchi, yuksak ma'naviyatli va eng asosiysi, barcha jarayonlarga tezda moslashuvchan soha hisoblanadi. Aynan mulkdorlar qatlami tufayli jamiyatda barqarorlik, farovonlik, taraqqiyot tezlashadi. O'zini mustaqil deb his qilgan insongina ijtimoiy erkinlikka, iqtisodiy to'q va farovon hayotga erishishga intilib, yanada unumliroq mehnat qiladi, inson nomiga munosib turmushga erishadi.

8. Bugungi kunda rivojlangan demokratik davlatlardan tortib, endi yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo'yayotgan mamlakatlargacha jamiyat a'zolarini nufuzi va obro'yini mulk, boylik bilan o'lchash urfga aylanmoqda. Natijada odamlarda egoizm, molparastlik, ochko'zlik kabi salbiy illatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa, barpo etmoqchi bo'lgan Uchinchi Renessansning asoslaridan biri ma'naviy-axloqiy asoslarni zaiflashiga va yemirilishiga olib keladi. Jamiyatning ma'naviy-axloqiy asoslari zaiflashgan joyda, qonunlarning ishlash mexanizmini izdan chiqaradi, bu esa odamlarning ham dunyoqarashiga o'zini ta'sirini ko'rsatadi.

9. Tadbirkor va ishbilarmonlar qadim zamonlarda ham, hamisha, bunyodkor, omilkor, yaratuvchi, saxovatpesha bo'lishi bilan birga, o'zlarining ma'naviyati, madaniyati bilan ajralib turgan. O'zlarining arzimagan, o'tkinchi, shaxsiy foydasini ko'zlab, millatning ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan maxsulotlarni ishlab chiqarmagan va mamlakatga olib kirmagan. Shu boisdan, aynan yaratilajak Uchinchi Renessans, mamlakatning ma'naviyat mezonlariga amal qiladigan birovlarning haqiga xiyonat qilmaydigan, insof, diyonat, halollik, rozi-rizolik asosida ish olib boradigan fidoiy, ma'naviyatli mulkdorlar qatlamini shakllantirish bilan asoslanadi.

10. Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishda mulkdorlar qatlamining shakllanishi va rivojlanishi aholi turmush farovonligining oshishiga, odamlarni jipslashtirishga, ular o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga, jamiyat taraqqiyotini tezlashtirishga xizmat qiladi;

11. O'zbekistonda Uchinchi Renessans asosini innovatsion bilimlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyot tashkil etilishini nazarda tutgan holda, barcha

sohalarni rivojlantirishda innovatsion faoliyatga urg'u berish, innovatsion faoliyatning asosi bo'lgan innovatsion texnologik parklar va markazlar, innovatsion klaster, venchur tashkiloti, innovatsiya markazlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni yanada mustahkamlash va ularni rivojlanishini ta'minlash lozim.

12. Yangi Uchinchi Renessans bosqichida mulkdorlar qatlamining barqarorligi, jamiyatning innovatsion rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatib, innovatsiyalar uchun qulay muhitni yaratish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy institutlarning samarali ishlashi, sifatli ta'lim olish va ilm-fanni davlat tomonidan moliyalashtirishning yangicha tizimini yo'lga qo'yish zarurligini ko'rsatadi.

13. Kambag'allik umumbashariy global muammo sifatida tavsiflanmoqda. Shu sababli, aholining muayyan qatlamining yetarli bilim va malakaga ega emasligi, ularning mehnat bozorida raqobatgadosh berolmasligi, ayrim hududlarda ishsizlikning yuqoriligi, yangi ish o'rinlari tashkil etilishdagi mavjud muammolar, shuningdek, odamlardagi boqimandalik kayfiyatining yuqoriligi, milliy urf-odatlardagi ortiqcha sarf-xarajatlar, ta'lim va tibbiyot tizimidagi salbiy holatlar va hududlarda ulardan foydalanish sifatining pastligi kabilar kambag'allikka yetaklovchi asosiy sabablar sifatida belgilanmoqda.

14. Uchinchi Renessans — bu raqamli texnologiyalar, internet va sun'iy intellektdan samarali foydalanish orqali, kelgusi ming yillikda ko'plab sivilizatsiyaning global muammolarini hal qilishda milliardlab odamlarning dunyoqarashini o'zgartirib, ular o'rtasida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yadi. Yangi Renessans Yangi Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino yoki Mirzo Ulug'bek kabi buyuk allomalarni kashf etadi deyish mumkin. Bu orqali esa Yer yuzida o'sib borayotgan aholi hayotining farovonligini ta'minlashga xizmat qiluvchi Raqamli Renessans barpo etiladi. Bu davrga kelib, oziq-ovqat, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, epidemiologik va kosmik xavfsizlikni ta'minlash ustuvor ahamiyat kasb eta boshlaydi. Inson faoliyatining barcha sohasida miya (ong) kapitalining o'sishi va intellektualizatsiya jarayoni ro'y beradi.

15. Insoniyat madaniy hayotining bugungi darajasiga kelguniga qadar nimagaki erishgan bo'lsa, barchasi uning aql zakovati va bilimi mahsuli ekanligi kundek ravshan. Axborot asrida jahon iqtisodiyotining bilimlar iqtisodiyotiga tomon transformatsiyasi ta'limning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Bilimlar iqtisodiyoti sharoitida bilim eng asosiy resurs sifatida maydonga chiqadi. Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda esa, intellektual mulkdorlar qatlamining o'rni va roli bilan belgilanadi.

16. Intellektual rivojlangan, ilmsevar avlodni tarbiyalash uchun sifatli ta'lim va tarbiyaning o'zi yetarli bo'lmaydi. Buning uchun, avvalo, rivojlangan tibbiyot va aqlli oila yordamida raqamli intellektual qobiliyatni rivojlantirish va irsiyatni yaxshilash muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida amaliyotga joriy etishga qaratilgan quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan:

1. Mulkdorlar qatlamining shakllanishi Uchinchi Renessans bilan chambarchas bog'liq bo'lgan dialektik jarayon ekanligini aholi ongiga singdirish maqsadida keng ko'lamda targ'ibot ishlarini olib borish zarur;

2. Aholining turli qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan munosabatini va kayfiyatini, shuningdek, mavjud muammolarni aniqlash hamda oldini olish maqsadida ta'lim muassasalari va mehnat tashkilotlarida "Sotsiolog" shtatlarini va "Sotsiologik markazlari" tashkil etish lozim;

3. Iqtisodiy-matematik modellaridan foydalangan holda, jamiyat ijtimoiy tarkibida mulkdorlar qatlami o'rnini aniqlash va bu haqida keng jamoatchilikni xabardor qilib borish lozim;

4. Mulkdorlar qatlamini, ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi meyoriy-huquqiy hujjatlarni o'zaro muvofiqlashtirish va bir-biriga zid kelishini oldini olish zarur;

5. Mamlakat investitsion jozibadorligini yanada takomillashtirish lozim;

6. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi va milliy xususiyatlarimizni hisobga olgan holda, kambag'allikni aniqlash va qisqartirish metodikasini ishlab chiqish hamda uni oldini olish uchun aholini o'z-o'zini band qilish borasidagi tajribalarni o'rganish, to'plash va kelgusi avlodlarga yetkazish;

7. Aholini soliq va kredit imtiyozlaridan foydalanish ko'nikmalarini oshirish, buning uchun, imtiyozlardan samarali foydalanayotgan tadbirkorlarni OAV orqali yoki xalq bilan muntazam uchrashuvlarini tashkil etish lozim;

8. Xorijiy davlatlar tajribasidan samarali foydalanish, kadrlar tayyorlash tizimini yangicha zamonaviy asosda yaratish;

9. Xususiy korxonalar faoliyatini rag'batlantirish, kichik biznes infratuzilmasini yanada takomillashtirish, eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash;

10. Intellektual sohani rivojlantirish samaradorligini oshirish maqsadida "Intellektual mulkdorlar" qatlami markazlarini ochish, ular tomonidan yaratilgan yangi g'oyalar, innovatsiyalar, ilmiy ishlanmalarni yetarli darajada moliyalashtirishni rag'batlantirish zarur;

11. Respublika va xalqaro miqyosda Intellektual mulkdorlar qatlamining forumini tashkil etish;

12. Ta'lim muassasalarida talaba va o'quvchilarni yangi g'oya va loyihalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida maxsus jamg'armalar tashkil etish;

13. Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni samaradorligini oshirish maqsadida fuqarolik jamiyati institutlari, xususan nodavlat-notijorat tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish va qo'llab-quvvatlash zarur;

14. Uchinchi Renessansning ijtimoiy tayanchi, barqaror taraqqiyot, totuvlik va mamlakat xavfsizligining ishonchli kafolati bo'lgan mulkdorlar qatlamining shakllanishi va rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan har qanday to'siq va illatlarga qarshi kurashni kuchaytirish zarur. Bu dolzarb muammoni oxirigacha hal etmay turib, erkin va farovon hayotni ta'minlovchi yangi jamiyatni bunyod etish mumkin emas.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ № DSc.03/30.12.2019.F.02.02
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ИМЕНИ ШАРАФА РАШИДОВА**

КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ШАЙМАНОВА АДИБА ЭРГАШЕВНА

**ФОРМИРОВАНИЕ КЛАССА СОБСТВЕННИКОВ В ПРОЦЕССЕ
ТРЕТЬЕГО РЕНЕССАНСА В УЗБЕКИСТАНЕ: СОЦИАЛЬНО-
ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ**

09.00.04 – Социальная философия

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФСКИХ НАУК (DSc)**

Самарканд - 2024

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора наук (DSc) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией под номером B2021.3.DSc/Fal101.

Диссертация выполнена в Каршинском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.samdu.uz) и по адресу (www.ziyonet.uz) информационно-образовательного портала “ZiyoNet”.

Научный консультант:

Хакимов Назар Хакимович
доктор философских наук, профессор

Официальные оппоненты:

Джураев Лукмон Нарзуллаевич
доктор философских наук (DSc), доцент

Хусейнова Абира Амановна
доктор философских наук, профессор

Пардаев Мамаюнус Каршибаевич
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация:

Ургенчский государственный университет

Защита диссертации состоится «_____» _____ 2024 года в _____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.F.02.02 при Самаркандском государственном университете имени Шарафа Рашидова. (Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, дом 15. Тел: (8366) 235-19-38, 239-64-90; факс: (8366) 231-15-86, (8366)235-27-24; e-mail: rektor@samdu.uz Здание факультета истории при Самаркандском государственном университете имени Шарафа Рашидова, 1-этаж, 105-аудитория)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарафа Рашидова (зарегистрирована за № _____). (Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, 15. Тел: (8366) 235-19-38, 235-64-90; факс: (0366) 239-11-40.)

Автореферат диссертации разослан «_____» _____ 2024 года
(Реестр протокола рассылки № _____ от «_____» _____ 2024 года).

Ш.Ш.Негматова

Председатель Научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор философских наук (DSc), профессор

Х.А.Джуракулов

Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор философских наук (DSc), доцент

А.Р.Самадов

Председатель научного семинара
при Научном совете по присуждению ученых степеней,
доктор философских наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире к началу XXI века развитие и дальнейшее совершенствование основ правового демократического государства и гражданского общества, основанного на свободных рыночных отношениях приобретает важное значение для большинства развивающихся стран. Такой процесс, в свою очередь, порождает необходимость формирования слоя собственников со стабильным доходом, достаточным для удовлетворения масштабных материально-экономических и духовно-культурных потребностей. Поэтому в период нарастания в обществе таких негативных пороков, как равнодушие, безразличие, отчуждение от труда, собственности, измена, взяточничество, тунеядство, механизмы формирования слоя собственников, сочетающих в себе такие положительные черты, как честный труд, оценка науки, трудолюбие, патриотизм, гуманизм, креативность, и совершенствование их определение методов и средств становится все более актуальным.

В ряде ведущих научно-исследовательских институтов и научных центров мира проводятся научно-теоретические и практико-фундаментальные исследования, связанные с дальнейшей демократизацией общества, совершенствованием гражданского общества, формированием слоя собственников, являющегося основой социально-экономической и политической стабильности. В частности, важное научное значение приобретают проводимые исследования по генезису, трансформации слоя собственников, выявлению и устранению факторов, препятствующих инновационному развитию общества. В то же время возрастает необходимость исследования формирования слоя собственников, его значения в развитии общества, антропологических, психологических, гносеологических, онтологических, социально-экономических основ, чтобы не отставать от тенденций общенаучного развития.

В стране проводятся реформы, направленные на построение Нового Узбекистана на основе принципа «За человеческие достоинства», дальнейшее повышение благосостояния народа, трансформацию отраслей экономики, обеспечение прав и интересов человека и формирование гражданского общества. «Необходимо и надобно сделать Новый Узбекистан страной широких возможностей для всех граждан, которые мечтают добросовестно трудиться и добиваться успеха, стремятся обеспечить благополучие себя и своей семьи через предпринимательство, искренне хотят служить своей Родине и народу»¹. Поэтому важное значение приобретает социально-философское исследование формирования, тенденций развития, социокультурных особенностей слоя собственников, являющегося социально-экономической основой строящегося нового, Третьего Ренессанса, а также закономерностей их совершенствования.

¹Мирзиёев Ш. М. Новая стратегия Узбекистана. – Ташкент.: «Узбекистан», 2021. –195 с.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, намеченных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, № УП-198 «О мерах по надежной защите неприкосновенности права собственности, недопущению необоснованного вмешательства в имущественные отношения, повышению уровня капитализации частной собственности» от 22 августа 2022 года, № УП-5975 «О мерах по кардинальному обновлению государственной политики в сфере развития экономики и сокращения бедности» от 26 марта 2020 года, а также № УП-6108 «О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период развития Узбекистана» от 6 ноября 2020 года и в других нормативно-правовых документах, относящихся к сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики: I. «Формирование системы социальных, правовых, экономических, инновационных идей информационного общества и демократического государства и пути их реализации».

Обзор зарубежных исследований по теме диссертации¹. В настоящее время научные исследования, посвящённые вопросам места класса собственников в социально-экономическом развитии территорий ведутся в ведущих мировых научных центрах и университетах, в том числе, во Французском институте исследований Центральной Азии (IFEAC), в Программе Центральная Азия Университета Джорджа Вашингтона (The Central Asia Program (CAP) at George Washington University), Центре российских и евразийских исследований Гарвардского университета (The Davis Center for Russian and Eurasian Studies at Harvard University), Университете Гумбольдта в Берлине (Humboldt-Universität zu Berlin), Университете Корвинуса в Будапеште (The Center for Central Asia Research of Corvinus University of Budapest), Институте стран Азии и Африки Московского государственного университета имени М.В. Ломоносова.

